

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining
FARMONI

O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR
KUNI MUNOSABATI BILAN
TA'LIM-TARBIYA TIZIMIDA
ALOHIDA O'RNAK KO'RSATGAN
XODIMLARDAN BIR GURUHINI
MUKOFOTLASH TO'G'RISIDA

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, ushbu yo'nalishda islohotlar samaradorligini oshirish, o'quv jarayoniga ilg'or tajribalar, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish borasidagi munosib hissasi, o'quvchi yoshlarga zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni o'rgatish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo'lidagi katta xizmatlari, ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki, shuningdek, yurtimizda ta'limga oid investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib kelayotgani uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi” faxriy unvoni bilan
Raximov Xamidjon Mamajonovich – Oltiriq tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab direktori, Farg'ona viloyati
(Davomi 2-sahifada.)



2025-yil boshidan buyon Davlatimiz rahbari ta'lim sohasi vakillari bilan o'n marta uchrashdi. Ularda oliy, kasbiy, maktabgacha va maktab ta'limi, nodavlat ta'lim, sport va harbiy ta'lim, xorijdagi ta'limni qo'llab-quvvatlashga oid taqdimotlar bilan tanishdi hamda videoselektor yig'ilishlari o'tkazildi.

Bu tadbirlar allaqachon o'z mevasini bera boshladi. O'qituvchilarning oylik maoshiga 10 dan ortiq ustamalar joriy qilindi. Bugun o'z ustida ishlagan 60 mingdan ortiq pedagog 10–12 million so'm maosh o'layпти. Yangi baholash tizimi bo'yicha ijobiy natija ko'rsatgan 300 ta maktabning butun jamoasi 40 foizgacha ustama olmoqda. Shu oydan maktab direktorlari, bog'cha mudirlari va ularning o'rinbosarlari oyiligi ham 10 million so'mdan oshdi.

IFTIXOR

O'ZBEK FUTBOLI
MO'JIZASI

Futbol bo'yicha milliy terma jamoamiz mamlakatimiz tarixida ilk bor jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritib, ko'p yillik orzu-umidimizni ro'yobga chiqardi. Kuni kecha O'zbekiston terma jamoasi “CAFA Nations Cup 2025” o'yinlarida Eron terma jamoasini mag'lub etib, Osiyoda tengsiz jamoalardan biriga aylanganini ko'rsatdi.

2024-yildan boshlab o'zbek futbolini rivojida yangi sahifa ochildi – 23 yoshgacha bo'lgan terma jamoamiz birinchi marta Olimpiya o'yinlarida ishtirok etdi. Yutuq va xursandchiliklarimizning cheki yo'q. Yaqindagina, aprel oyida Saudiya Arabistonida o'tgan musobaqada 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlarimiz Osiyo kubogini qo'lga kiritib, jahon chempionatiga yo'llanma olgan edi. Mana, endi asosiy terma jamoamiz ham yangi tarix yaratdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shu munosabat bilan yo'llagan tabrigida futbolchilarimiz chinakam jasorat va matonat namunasini ko'rsatib, xalqimiz orzusini ro'yobga chiqarganini ta'kidladi: “Aminman, bu tarixiy yutuq xalqimizni ezgu maqsadlar yo'lida yanada birlashtiradi, ming-minglab yoshlarimiz uchun ilhom manbayiga, ibrat timsoliga aylanadi, Yangi O'zbekistonning xalqaro obro'-e'tiborini yanada oshirishga xizmat qiladi”.

(Davomi 6-sahifada.)

SHU SONDA:

UMR NAQSHI

“...Men najotni ilmda ko'rdim, undan boshqa dastaklarni tutmadim. Tirik odamning sinovga bosh egishga haqqi yo'q: harakat, harakat va harakat kerak...”

(3-sahifada o'qing.)

MILLAT FIDOYILARI

SAODAT VA KULFAT

Saodat Shamsiyeva 1908-yili To'rtko'l shahrida, novvoy Polvon Allaqulov oilasida tug'ilgan. Asli Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'idan bo'lgan otasi savodli odamlarni hurmat qilargan, shu sababdan farzandlari, xususan, qizlarini ham maktabga bergan edi. Afsuski, Polvon ota 1916-yilda vafot etadi, onasi Roziyabibi va katta akasining qaramog'ida o'n nafar bola qoladi. Kichiklarni ip yigirar, kattalar sut sotar – tirikchilik shundan edi.

Saodat taqdir taqozosi bilan qo'qonlik Zokirjon Shamsiyev bilan turmush qurib, matbuotchilar oilasiga kelin bo'ladi. Qaynisi Husayn Shams shoir bo'lib, kelinoyisining bilimli ekanidan behad xursand edi. Aka-uka Saodatga yaxshi kitoblarni sovg'a qilardi. Muhit ta'sirida yosh kelinchak she'rilar mashq qilib, maqolalar yoza boshladi.

Zokirjon Shamsiyev inqilobdan oldin poligrafiya maktabini tugatgan edi. 1924-yilda u Toshkentning Eski Jo'va mahallasida qurilgan birinchi bosma-xonaga direktor etib tayinlanadi. Zokirjon bilimli, o'qish-o'rganishga chanqoq odam edi. Adabiyot va yangi turmush borasidagi bahs-munozaralarni jondan sevardi. Uning taklifi bilan Cho'lpon, Botu, Elbek, G'ayraty, Ziyoda Said, G'ozida Yunus kabi ma'rifatparvarlar uylarida mehmon bo'lib, sahargacha suhbat-u she'rxonlik avjida bo'lardi.

Oila yangi joyga ko'nikkach, Zokirjon rafiqasini xotin-qizlar bilim yurtida o'qitdi. Saodat bu yerni bitirgach, Narkompressning topshirig'i bilan Xiva xotin-qizlar bilim yurtiga direktor bo'lib ketadigan bo'ldi.

Uning taklifi bilan Cho'lpon, Botu, Elbek, G'ayraty, Ziyoda Said, G'ozida Yunus kabi ma'rifatparvarlar uylarida mehmon bo'lib, sahargacha suhbat-u she'rxonlik avjida bo'lardi.

Oila yangi joyga ko'nikkach, Zokirjon rafiqasini xotin-qizlar bilim yurtida o'qitdi. Saodat bu yerni bitirgach, Narkompressning topshirig'i bilan Xiva xotin-qizlar bilim yurtiga direktor bo'lib ketadigan bo'ldi.

(Davomi 7-sahifada.)

16-SENTYABR - ATOQLI SAN'ATKOR SHUKUR BURHON TUG'ILGAN KUN

MILLAT TOLEYIDA
PORLAGAN YULDUZ

O'zbekiston xalq artisti
Erkin KOMILOV
xotinalari

Bir kuni ustozim Shukur Burhon “O'tir moshinaga!” dedi. Ketdik. Hech qachon so'ramasdim qayerga deb, u kishiyam aytib o'tirmasdi. Ulug'vor binoga keldik. Yaxshi qo'riqlanar ekan, ustozni tanib yo'l berisha ham, menga shubha bilan qarardi qo'riqchilar. “Shogirdim!” dedi ustoz savolga o'rinqoldirmaydigan qilib. Oltinchi qavatga ko'tarildik. Ustoz bir eshikni dadil ochib kirdi, ortidan ergashdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, xona to'ridagi keng-mo'l stol ortida Sharof Rashidov o'tiribdi.

(Davomi 5-sahifada.)

VATAN MANZUMASI

Shavkat RAHMON

Hali biror ishni uddalamadim,
hali hech kimsani qilmadim rozi,
behuda o'tibdi go'zal umrimning
qanchalab chiroyli bahori, yozi.
Farog'at borligin unutib qo'ydim,
bag'rimga chaqinlar tegdi daf'atan,
Sendan-da ulug'roq narsa yo'qligin
sochimg oqarganda angladim, Vatan!
Buncha kech angladim,
nega muncha kech...
Anglasam loaqal o'ttiz yil avval,
loaqal tug'ilmay turib anglasam...
Ko'rgan bo'larmidim seni mukammal.
Hali asl Vatan bo'limg'ing uchun
ovozi toshlarni yorar kuychilar,
qanchalab sehrigar shoirlar kerak,
qancha bilim kerak,
qancha kuch-chidam.
Umrim ko'chkilarday jimjit,
shiddatli,
butkul tinmoq uchun bir kun bemalol
faqat yaxshi bo'lmoq judayam kamdir,
juda kamlik qilar yashamoq halol.
Naqadar kechikib angladim seni,
chaqinlar yo'q qilsa meni daf'atan,
ayt, qandoq chidayman bunday xo'rlikka,
ayt, qandoq yotaman qa'ringda, Vatan!

(Davomi 4-sahifada.)



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

O‘QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TA’LIM-TARBIYA TIZIMIDA ALOHIDA O‘RNAK KO‘RSATGAN XODIMLARDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan xalq ta’limi xodimi” faxriy unvoni bilan

Boyqobilova Lobar Toshtemirovna – Oqdaryo tumanidagi 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabining biologiya fani o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

Egamberdiyev Atabek Ro‘zimovich – Hazorasp tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning fizika fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Abdullayev Maxmudjon Muxamedovich – Toshkent davlat texnika universitetining mexatronika va robototexnika kafedrası professori

Orazimbetova Guldarixa Kdirbayevna – Qorao‘zak tumanidagi 32-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ingliz tili fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Suvanov Omon – Guliston davlat universitetining pedagogika va psixologiya kafedrası katta o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Xushmatov Raxmatullo Rabbimovich – Samarqand shahridagi alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 61-maktab-internatining tasviriy san‘at va chizmachilik fani o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

Shukurov Maxmanazar Karimovich – Yakkabog‘ tumanidagi 37-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

I darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Tadjibayeva Ma‘muraxon Ashuraliyevna – Toshkent shahridagi Prezident maktabi ijrochi direktori

II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Abdullayev Shavkat Vaxidovich – Namangan davlat universitetining kimyo kafedrası professori, Namangan viloyati

Axmedova Muattar Abduvaxitovna – Qibray tumanidagi “Imkon” ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti defektologi, Toshkent viloyati

Baltabayev Alimkul Egamberdiyevich – Sayxunobod tumanidagi 16-umumiy o‘rta ta’lim maktabining musiqa fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Bo‘tayeV Qaxramon Nig‘matovich – R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining akademik xonandalik bo‘limi bosh o‘qituvchisi

Ziyayeva Moxidil Baxtiyorovna – Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Kazimova Roxila Rozikovna – Tayloq tumanidagi 41-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Samarqand viloyati

Karimova Mavludaxon Sharobutdinovna – Oltinko‘l tumanidagi “Al Impex garant” nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori, Andijon viloyati

Kasimov Fayzullo Muxamadovich – Buxoro davlat pedagogika institutining boshlang‘ich ta’lim kafedrası professori, Buxoro viloyati

Pirmatova Rano NinniyeVna – Sherobod tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Umaraliyeva Mamuraxon Tashxodjayevna – Toshkent farmatsevtika instituti akademik litseyining biologiya fani o‘qituvchisi

“Do‘stlik” ordeni bilan

Abdushukurov Anvar Kabirovich – O‘zbekiston Milliy universitetining organik va neft-gaz kimyo kafedrası professori

Azarenko Igor Timofeyevich – V.A.Uspenskiy nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining estrada ijrochiligi bo‘limi o‘qituvchisi

Azimov Raxim Azizboyevich – Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasining Xavfsizlik va korrupsiyaga qarshi kurash qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari

Volfgang Anton Herrmann – “Yangi O‘zbekiston” universitetining faxriy prezidenti

Drujinina Yelena Sergeyevna – Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabi murabbiysi

Ibrohim Said Abdulla Ali Alhajri – Birlashgan Arab Amirliklarining Xalifa universiteti prezidenti

Ismatillayev Xabibulla – Oltinsoy tumanidagi 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Kadirova Adiba Raxmonovna – Shahrisabz shahridagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

King Stefen Richard – “Cambridge University Press & Assessment” tashkilotining Yevropa, Markaziy Osiyo va Amerika bo‘yicha bosh koordinatori

Qalbayeva Naubahar Perdebayevna – Nukus tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining qoraqalpoq tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Marsden Abbey Nikole – Andijon shahridagi Prezident maktabining kimyo fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Mirjalilova Gulbaxor Miraxmonovna – Chust tumanidagi 52-umumiy o‘rta ta’lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati

Mirzakulov Batirjon Kazakbayevich – Mirzacho‘l tumani hokimi, Jizzax viloyati

Rassell Heyli Daniel – Mirobod tumanidagi 175-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ingliz tili fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Sayfutdinov Anvar Nazarovich – Mirobod tumani hokimi, Toshkent shahri

Saparova Guldar Jusupaliyevna – Bo‘ka tumanidagi 34-umumiy o‘rta ta’lim maktabining nemis tili fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

Sultanova Shaxida Yuldashevna – Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universitetining akademik litseyi ijrochi direktori

Uvarova Vera Yuryevna – Toshkent shahridagi “Novda Edutainment” mas’uliyati cheklangan jamiyatining gumanitar fanlar bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish bo‘limi boshlig‘i

Usmanova Nodira Soxibovna – Qarshi shahridagi 2-ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti logopedi, Qashqadaryo viloyati

Xasanov Baxtiyor Temirovich – Oqdaryo tumanidagi 47-umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Samarqand viloyati

Xafizova Sayyora Baxtiyarovna – Navbahor tumanidagi 1-maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining o‘rinbosari, Navoiy viloyati

Shamusarov Sharustam Giyazovich – Toshkent davlat sharqshunoslik

universitetining arabshunoslik oliy maktabi professori

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Abduraxmanova Surayyo Mirzamamutovna – Uchqo‘rg‘on tumanidagi 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Namangan viloyati

Azimova Nargiza Fagimovna – Paxtakor tumani sport maktabining dzyudo bo‘yicha murabbiysi, Jizzax viloyati

Artikov Urol Yusupovich – Jarqo‘rg‘on tumani sport maktabining dzyudo bo‘yicha murabbiysi, Surxondaryo viloyati

Zakirova Dilnoza Sharifovna – Buxoro turizm va madaniy meros texnikumining maxsus fan o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Kamolova Shohzoda Fayzullayevna – Navoiy shahridagi “Barkamol avlod” bolalar maktabining robototexnika to‘garagi rahbari, Navoiy viloyati

Musayev Saminjon Aliyevich – Uchko‘prik tumanidagi 24-umumiy o‘rta ta’lim maktabining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

Ruzikulov Ravshan Raxmatulloyevich – Sport yakkakurashlari bo‘yicha Respublika oliy sport mahorati maktabining yunon–rum kurashi bo‘yicha katta murabbiysi

Soliyev Anvarxuja Maqsudovich – Yangiyo‘l tumanidagi 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

Choriyev Faxriddin Urolovich – Qamashi tumanidagi 2-sport maktabi direktorining futbolni rivojlantirish bo‘yicha o‘rinbosari, Qashqadaryo viloyati

“Shuhrat” medali bilan

Abdinazarov Xasanboy Xoliq-nazarovich – Dang‘ara tumanidagi “D.I.Mendeleyev” nodavlat ta’lim muassasasi rahbari, Farg‘ona viloyati

Abdullayeva Fotima Baxromovna – Jizzax shahridagi “Jizzakh International School” xususiy maktabi direktori, Jizzax viloyati

Amanov Baxtiyar Xushbakovich – Chirchiq davlat pedagogika universitetining genetika va evolyutsion biologiya kafedrası mudiri, Toshkent viloyati

Amanova Zulxumor Mutalovna – Angren shahridagi ixtisoslashtirilgan maktabning informatika fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

Axmedova Hafiza Hakimovna – Buxoro davlat texnika universiteti akademik litseyining rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Axunova Tamara Uktamovna – Buloqboshi tumanidagi 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Berdiyorova Xurshida Jambulovna – Koson tumanidagi 95-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Bobanazarov Sherbay Abdiraxmanovich – Muzrabot tumanidagi 17-umumiy o‘rta ta’lim maktabining informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Boboyev Maqsud Mahmudovich – Jondor tumanidagi 46-umumiy o‘rta ta’lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Boltayeva Lola Abduvohidovna – Yunusobod tumanidagi 273-umumiy o‘rta ta’lim maktabining geografiya fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Djabbarov Ruzmat Allanazarovich – Xiva shahridagi 121-ko‘zi oqiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

Jalelov Ilxam Klishbayevich – Qonliko‘l tumanidagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Jalilov Behzod Murotovich – Toshkent shahridagi “Target international school” nodavlat ta’lim muassasasi rahbari

Janiqulov Ma‘ruf Maxsud o‘g‘li – Forish tumanidagi 47-umumiy o‘rta ta’lim maktabining biologiya fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Jurayeva Feruza Baxodirovna – Vobkent tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining nemis tili fani o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Zanjirova Xurshida Maxmudovna – Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning informatika fani o‘qituvchisi, Toshkent shahri

Zikirova Sanam Kilichevna – Qarshi shahridagi “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan bolalar uchun internat uyi enagasi, Qashqadaryo viloyati

Kamalitdinov Jobir Nuritdinovich – Davlatobod tumanidagi “Aisha Home Textile” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori, Namangan viloyati

Karimov Eldor Erkinovich – G‘uzor tumanidagi 1-politexnikumi direktori, Qashqadaryo viloyati

Mamajonova Zoxidaxon Tursunovna – Norin tumanidagi 25-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ingliz tili fani o‘qituvchisi, Namangan viloyati

Mirzayeva Raxima – Farg‘ona shahridagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining biologiya fani o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

Mirzaxmedov Ulugbek Uyirbekovich – Bo‘stonliq tumanidagi 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabining musiqa fani o‘qituvchisi, Toshkent viloyati

Nasirova Shaira Narmuradovna – Navoiy davlat universitetining raqamli texnologiyalar kafedrası professori, Navoiy viloyati

Norqo‘chqarova Salima Normuminovna – Qumqo‘rg‘on tumanidagi 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabining fizika fani o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Orazbayev Jurabek Ibadullayevich – Ellikqal‘a tumanidagi “Sarabiy” o‘quv markazi rahbari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Po‘latov Rashidjon Raximovich – Beshariq tumanidagi 11-umumiy o‘rta ta’lim maktabining texnologiya fani o‘qituvchisi, Farg‘ona viloyati

Saydaxmatova Xalimaxon Ismoilovna – Quva tumanidagi 1-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Farg‘ona viloyati

Salayev San‘atbek Kamilovich – Xorazm viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy–ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari

Salimov Xaytboy Mirzayevich – Marhamat tumanidagi 31-umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

Salomov Umid Firdavsiyevich – Samarqand shahridagi “Anvar Zamon Nur” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, Samarqand viloyati

Samadova Gulbahor Saidmuradovna – Jizzax shahridagi 22-umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Samiyeva Nafosat Kamolovna – Kitob tumanidagi 3-oilaviy bolalar uyi rahbari, Qashqadaryo viloyati

Sarsenbayeva Uldaulet Ansatbay qizi – Bo‘zatov tumanidagi 20-bolalar musiqa va san‘at maktabining baxshichilik

sinfı o‘qituvchisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

Sultanova Gulnora Alimbayevna – Urganch shahridagi 18-maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, Xorazm viloyati

Sultonov Jaxongir Xasanjon o‘g‘li – O‘zbekiston tumanidagi “Edu fly” o‘quv markazi rahbari, Farg‘ona viloyati

Sultonov Sulton Istamovich – Buxoro shahridagi 24-ko‘zi oqiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatining boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, Buxoro viloyati

Temirov Anvar G‘ayrat o‘g‘li – Samarqand shahridagi “Yuksalish quruvchi” mas’uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Samarqand viloyati

Tillayev Alisher Xasanovich – “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universitetining “International House-Tashkent” akademik litseyi direktori

Tishlikova Dinora Maxmudovna – Guliston shahridagi 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Turg‘unov Bekzod Mirzamaxmud o‘g‘li – Chortoq tumanidagi “Stanford LC” nodavlat ta’lim muassasasi rahbari, Namangan viloyati

Umarova Ozodaxon Israilovna – Jalaquduq tumanidagi 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabining kimyo fani o‘qituvchisi, Andijon viloyati

O‘tanov Shuhrat Qo‘shmurodovich – G‘allaorol tumanidagi 24-umumiy o‘rta ta’lim maktabining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Xaknazarov Farxad Mamaraximovich – Guliston tumanidagi 14-umumiy o‘rta ta’lim maktabining informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati

Xamidov Xayrullo Ismoilovich – Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining metallurgiya kafedrası professori, Navoiy viloyati

Xamidova Gulnoza Baxtiyorovna – Zomin tumanidagi “Iqtidorlilar” xususiy maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Xo‘janiyozova Umida Qalandarovna – Urganch tumanidagi 45-umumiy o‘rta ta’lim maktabining kimyo fani o‘qituvchisi, Xorazm viloyati

Shin Yelena Petrovna – Bekobod shahridagi 11-ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti defektologi, Toshkent viloyati

Shoberdiyev Omon Abdixoliqovich – Qumqo‘rg‘on tumanidagi 1-politexnikumning maxsus fan o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati

Shodmonova Marhabo O‘ktamovna – Qiziltepa tumanidagi 1-politexnikumning maxsus fan o‘qituvchisi, Navoiy viloyati

Egamberdiyev Omon Sanjar Usanbayevich – Shirin energetika texnikumining ishlab chiqarish ta‘limi ustasi, Sirdaryo viloyati

Elmirzayev Parvoz Pardayevich – Kitob tumanidagi 50-umumiy o‘rta ta’lim maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Qashqadaryo viloyati

Ergashev Sherzod Shodibek o‘g‘li – Jizzax shahridagi Prezident maktabining matematika fani o‘qituvchisi, Jizzax viloyati

Yavidov Bahram Yangibayevich – Nukus davlat pedagogika institutining fizika o‘qitish metodikasi kafedrası professori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Sh.MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2025-yil 11-sentyabr



MULOQOT

UMR NAQSHI

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining
Bioorganik kimyo instituti laboratoriya mudiri,
akademik Tohir ARIPOV bilan suhbat

– Ustoz, Prezidentimiz farmoni bilan sizga 5-sentyabr kuni “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni berildi. Avvalo, yuksak mukofot bilan samimiy muborakkobd etamiz!

– Rahmat! “Siylangan joyida azizdir inson”, deydi Abdulla Oripov. Bugun yurtimizda ilm-fan vakillari temuriylar davridagi kabi siylov va g‘amxo‘rlik ko‘rmoqda. Mana, yaqinda davlatimiz rahbari yirik olimlarimiz – Ne‘matulloh Ibrohimovning 80 yoshi hamda marhum Rustam Qosimov tavalludining 70 yilligi munosabati bilan ikkita farmon imzoladi. Holbuki, ularning nomini Mustaqillik kuni arafasida bir guruh faollarni mukofotlash to‘g‘risidagi farmonga kiritib ketish mumkin edi. Ammo bu ilm ahliga bo‘lgan ehtiromni, astoydil mehnat qilgan odam albatta yorug‘ kunlarga erishadi, degan qadim haqiqatni yana bir karra tasdiqladi.

Kamina o‘tgan yili “Do‘stlik” ordeniga loyiq ko‘rilgan edim. Bu yil 80 yoshga to‘lishim ham Prezidentimiz nazaridan chetda qolmagan ekan. Ilm yo‘lidagi kamtarona mehnatlarim e‘tirof etilganidan juda xursandman. Bu farmonni hamkasblarim, shogirdlarim, oila a‘zolarim katta quvonch bilan qabul qildi. “Xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” degan e‘tirof menga yanada yuksak mas‘uliyat yukladi. Davlatimiz va xalqimiz ishonchini oqlab, yosh olimlarni tarbiyalashda yangi kuch va g‘ayrat bilan yondashishga ilhomlantirdi.

Har bir olimning taqdirlanishi ilm ahliga quvonch va ishonch bag‘ishlaydi. “Demak, ilm yo‘lida sobit turib, oldinga harakat qilishimiz kerak”, degan ruh beradi. Shu kayfiyat 9-10 yil oldin deyarli yo‘qolib ketgandi. Hatto, “Fanlar akademiyasi yopilib ketmasmi-kin?” degan xavotir va hadikli savol talabalardan tortib akademiklargacha bo‘lgan ilm-sevarlarni o‘ylantirardi. Chunki o‘sha paytlarda ko‘p institutlar birlashtirilib, xodimlar safida qisqartirishlar avj olgandi. Ana shunday bir pallada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashib, dildan muloqot qildi. E‘tiborli tomoni, o‘sha majlisda Prezident emas, asosan biz olimlar gapirdik. Shundan so‘ng ziyolilarning xotiri jam bo‘ldi. O‘sha kuni ilm xavotir ustidan g‘olib keldi. Tashqariga chiqar ekanmiz, bir-birimizni quchoqlab tabrikladik. Quvonchimiz cheksiz edi.

O‘zbekistonda ilm-fanni rivojlantirishga yo‘naltirilgan izchil siyosat mana shu kungacha davom etmoqda. Birgina misol, Fanlar akademiyasiga, ilmiy-tadqiqot institutlariga alohida e‘tibor qaratildi. Ilmiy loyihalar va tajribalarni amalga oshirish uchun moddiy-texnik imkoniyat kengaytirildi. Olimlarning ish haqi o‘sha davrlarga nisbatan ikki, kerak bo‘lsa, uch-to‘rt barobar oshirildi.

Rostini aytganda, cho‘ntagi quruq olimning na uyida, na dilida halovat bo‘ladi. Bunday vaziyatda ilmiy izlanish haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun ham bugun bizga berilayotgan imkoniyat va ta‘minovlarga javoban samarali mehnat qilishimiz, katta natijalarga erishish va Yangi O‘zbekiston qurilishiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak. Hamma gap harakat va akademik halollikda qolyapti.

– Sharoit va ruhlanitirish bo‘lgandan keyin Fanlar akademiyasi ham o‘z a‘zolarini qo‘llab-quvvatlash, ularning faoliyatini keng targ‘ib qilish imkoniga ega bo‘ladi. Yubileyingiz munosabati bilan tashkil etilgan “Bioorganik kimyo rivojining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya ham so‘zimizning yorqin isbotidir. Ushbu anjuman haqida kengroq ma‘lumot bersangiz.


– Konferensiya 3 ta seksiyada bo‘lib o‘tdi. Unda biofizika, bioteknologiya, molekulyar biologiya, dorivor o‘simliklar, ekologiya va boshqa sohalar bo‘yicha dolzarb mavzular muhokama qilindi. Yurtimizning turli ilmiy muassasalaridan tashrif buyurgan hamkasblarimiz, yosh olimlar, doktorantlar o‘z izlanishlarini taqdim etdi.

Meni eng quvontirgan jihat yoshlarning faolligi bo‘ldi. Ularning ko‘zida ilmga tashnalik, izlanishga chanqoqlik ko‘rdim. O‘z ma‘ruzalar orqali ular bizning davrimizdagi kengroq, zamonaviyroq yondashuvlarni namoyon qilishdi. Bu hol ilm-fanimizning yorqin kelajagidan dalolat beradi.

– Har gal ilm ahli bilan yuzlashganda, Gyotening “Faust” asarida aytilgan dono hikmat yodga tushadi: “Nazariya quruqdir, do‘stim, ammo yashnar hayot daraxti”. Albatta, har bir olim uchun ixtiro va kashfiyotlari amaliyotda qo‘llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Sizda ham fundamental tadqiqotlar natijasida hayotga tatbiq etilgan ishlanmalar ko‘p.

– Bundan 10–15 yil oldin Fanlar akademiyasida vitse-prezident bo‘lib ishlardim. Shu vaqtda Vazirlar Mahkamasida bir necha bor majlis o‘tkazildi. Asosiy mavzu: O‘zbekistonda dorivor o‘simliklar bilan jiddiy shug‘ullanishni yo‘lga qo‘yish edi. Bu yo‘nalish qisman mening sohamga taalluqli bo‘lgani uchun mas‘uliyatli ishini o‘z zimmamga olishga qaror qildim.

Shundan so‘ng laboratoriya tashkil qilib, ishini noldan boshladik. Bu laboratoriyada faqat nazariy izlanishlar olib borilmay, balki dorivor preparatlar va biologik faol qo‘shimchalar ishlab chiqarishga ham erishildi. Ularning ayrimlari allaqachon xorijga eksport qilinyapti. Bu ilmiy izlanishlarimiz akademik maqolalarda qolib ketmay, inson salomatligi, xalq farovonligiga bevosita



xizmat qilayotganini anglatadi. Yana shuni alohida ta‘kidlashim kerakki, bu loyiha muvaffaqiyatli amalga oshishiga bosh omil – o‘sha paytdagi bosh vazirimiz Shavkat Miromonovichning fidoyiligi va vatanparvarligi bo‘lgan.

Dorivor o‘simliklar bo‘yicha ish boshlaganimizga besh yil bo‘ldi. O‘tgan qisqa davrda ancha ishlarni amalga oshirdik. Hozirda dori ishlab chiqarishga ixtisoslashgan kichik korxonamiz bor. Mahsulotlarimizga Rossiya, Niderlandiya, AQSH kabi mamlakatlardan xaridorlar safi kengaymoqda.

Mana sizga fan bilan ishlab chiqarishning uzviy aloqasiga yaqqol misol. Men o‘zimni doim fundamental fan bilan amaliyot o‘rtasida ko‘prik bo‘lishga harakat qilgan olim deb bilaman. Shu o‘rinda Gyotedan keltirgan iqtibosingiz o‘rniga tushadi. Hozircha shu laboratoriyani tashkil qilib, dorivor o‘simliklar bilan ishlayotganim mening Vatan ravnaqi uchun qo‘shgan kichik hissamidir. Uni kengaytirish va boyitish esa yoshlar – shogirdlarim oldidagi vazifadir.

– Dunyo ko‘rgan, dunyo tan olgan olim sifatida yurtimiz yoshlarining ilm-fanga qiziqishini qanday baholaysiz? Shaxsiy tajribangizda yig‘itlarni ilmiy izlanishlarga keng jalb etish uchun qanday usullarni qo‘llaysiz?

– Bilasiz, ummonlar yaxlit ko‘rinsa ham, bag‘rida daryolardan ulush – issiq va sovuq oqimlar harakatlanadi. Ular fanga bo‘lmasa, okeanlar turg‘unlashib, ulkan botqoqqa aylanib qolishi hech gap emas. Qaysi soha vakili bo‘lmasin, yoshlardan uzoqlashsa, shu holga tushadi – taraqqiyotdan, zamondan orqada qolib ketadi. Yoshlar bilan ishlamagan olimlarning nomi qisqa vaqtda unutilib, yangi ochgan yo‘llari ham bekiladi.

Bizning laboratoriyamizda asosan yoshlar faoliyat yuritadi. Ular fanga bo‘lgan qiziqishi, intilishi va tirishqoqliklari bois, bir necha yil ichida yetuk mutaxassis bo‘lib shakllanmoqda. Yashirmaslik kerak, ular orasida bilimi sayozlari, dangasalari ham bor. Ular bilan boshqalarga qaraganda ko‘proq ishlashga to‘g‘ri keladi. Modomiki, yuragida ilmga muhabbat bor ekan, ko‘kragidan itarishga vijdonimiz yo‘l qo‘ymaydi. Ammo bu kabi kadrlar qayerdan kelayotganini aytish kerak. Albatta, oliy ta‘lim muassasalaridan. Shuning uchun ham, davlatimiz rahbari oliy ta‘lim tizimini takomillashtirish, talabalarni amaliyotga ko‘proq jalb etish bo‘yicha qator takliflarni ilgari surmoqda. Biz buni to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz.

Faxr bilan ayta olamanki, bugun shogirdlarim orasida institutlarga rahbar bo‘lganlari, chet el universitetlarida faoliyat yuritayotganlari ham bor. Kelajakda ularning ham shogirdlari katta yutuqlarga erishib, bu ilmiy zanjir uzilmas bo‘lishini istayman. Temuriylar davri ilm silsilasi uzilib qolgani oqibatida mintaqamiz mustamlaka zulmida yashadi. Jadidlar katta yo‘qotishni tiklab, o‘rtadagi halqalarni to‘ldir-moqchi edi. Bu yo‘lda Germaniyaga yoshlarni o‘qishga jo‘natdi ham. Ammo sovetlar bu ezuq ishini chippakka chiqardi. Mana endi, Uchinchi Renessans g‘oyasi maydonga chiqdi. Xudo xohlasa, yangi avlod Birinchi va Ikkinchi Renessansning tarixiy halqasiga ulanib, munosib davomchi bo‘la oladi.

– Ilm va hayot yo‘lingizga nazar solganingizda, nimalardan zavqlanib, nimalardan afsuslanasiz? Armoningiz bormi?

– Hayotimdan roziman, afsuslanadigan joyim yo‘q. To‘g‘ri, umrim mudom quyoshli bo‘ldi, deyolmayman. Bo‘ronlarga uchragan yillarim bo‘ldi. Men najotni ilmda ko‘rdim, undan boshqa dastaklarni tutmadim. Tirik odamning sinovga bosh egishga haqqi yo‘q: harakat, harakat va harakat kerak.

Yaqinda bir jurnalist ham armondan savol ochdi. Butun umrimni ilmga bag‘ishlagan, shundan izzat-ikrom ko‘rgan olimda qanday armon bo‘lishi mumkin? Vatani tinch va obod, faoliyati uchun keng eshiklar ochilgan olim nega o‘kinsin? To‘g‘ri, insoniy kemtik – muammolar bor. Lekin mehnat zavqi va yutuqlar nurida ko‘rinmay, erib ketadi.

– Ustoz, sizga uzoq umr, sihat-salomatlik tilaymiz! Mehnatingiz rohatini ko‘rib yurish hamisha nasib etsin!

Suhbatdoshlar:
Zarnigor IBROHIMOVA,
Vasila HABIBULAYEVA

O‘TMISHDAN SADO



Muhammad Murod inoq madrasasi.

VAQF – ILMDAN VOQIFLIK

Mushtdek bola vaqtimizdan kuzda paxta terimiga majburan haydalgan avlod vakilimiz.

1-sentyabrda o‘qish boshlanar, hafta o‘tmay maktablar yopilar va qora qishgacha otizdan chiqmasdik. Shunday zamonlar edi. Hozir gap bu haqda emas.

Elatimizdagi brigadaga tegishli yer maydonlarining o‘z atamalari bo‘lardi: “Chovdur karta”, “Traktor surgan otiz”, “Shavak”, “Cho‘plik” kabi. Yana ikki yerda “Vaqq karta” atalmish otizlar bo‘lib, u yerda paxta terishga navbat kelganida onam: “Bu otizda soyalam! U yerdan cho‘p ham olib bo‘lmaydi”, deb qulog‘imga quyanlari yodimda. Onalarimiz takror-takror ta‘kidlaydigan bu nasihat ma‘nosini anglash qayda? Bizga “vaqq” so‘zi “vahm” bo‘lib tuyular, shundan ko‘pincha o‘sha otizlarni “Vahm karta” atardik ham.

O‘tgan asrning 70-yillariga kelib, yangi oila qurganlar, turar-joylari eskirgan oilalarga imorat uchun yer maydoni ajratishga qaror qilinadi. O‘sha vaqtda amakimiz Riyimboy brigadir edi. U kishi yer uchun ariza bergan o‘n chog‘liq odamni oldiga solib, “Mesit” arig‘iga yondosh otizga olib boradi. Ariza yozganlar orasida eng keksasi Qobul buvaga: “Qani, Qobul buva qoziqlarni oling! Sizga birinchi bo‘lib o‘lchaymiz”, deb o‘lchov tayog‘ini paxtasi terilib, g‘ozapoyadan tozalangan otiz chekasiga suqadi. Qobul buva: “Men bu yerda uy qurolmayman – bu vaqq yeri. Ilm o‘rgatilgan joyni tepkilab yashamayman”, deb turib oladi. Qobul buvaning gapidan so‘ng boshqalar ham ortiga tisariladi. Brigadir amakim nima qilsin, kecha boshqaruv raisi shu yerdan o‘lcha, degan topshiriq bergan. U jahli chiqqancha, o‘lchov tayog‘ini yelkasiga tashlab, ketib qoladi.

Kechqurun bo‘lib o‘tgan voqeani eshitgan rais tumandagi yig‘ilishda gap eshitib qaytgan, asablari o‘ynab turgan ekan, “Irim qilishdimi, o‘zlaridan ko‘rsinlar! Hammasini kolxoz markaziga ko‘chiraman”, deydi. Qobul buvaning bir og‘iz gapidan so‘ng elatimizning yarmidan ko‘prog‘i qishloq markazidagi posyolkaga ko‘chib ketishgan.

Elatning “biylar” urug‘i yashaydigan qismida olti-yetti sotixcha keladigan yaydoq yer ekilmasdan yotar, hatto u yerga odamlar mol-qo‘ylarini bog‘lamasdi. Qariyalar: “Bu yerda Biylar masjidi bor edi, bolalarni o‘qitishardi, o‘rislar kelgach buzishdi”, deganlari qulog‘imda. Onam tengqurlarim bilan shu yerda o‘ynab yurganimni ko‘rib qolsa, quvib solardi. Yer 80-yillargacha bo‘sh yotdi, keyin kolxoz raisi uning ustidan yo‘l soldi...

Qo‘shni qishloqlik Odamboy mulaga ikki marta janoza o‘qilganini odamlar hali hamon eslashadi. Odamboy mullaning otasi ulamo inson o‘tgan

– masjidda bolalarga saboq bergan, o‘zi ham bir muddat otasi qatida eski maktabda yoshlarning savodini chiqargan ekan. Salkam to‘qson yoshga kirgan Odamboy mulla buva omonatini topshirayotgan vaqti o‘g‘liga vasiyat qiladi: “Meni Sayyid Alijon qabristoniga, otam yoniga qo‘yinglar. Yo‘lning qabristonga burilish joyida mayitimni yerga qo‘yib, yana bir karra janoza o‘qilsin!” U kishining vasiyati bajarilgan. Mayitga ikkinchi marta janoza o‘qilgan yer otasi va o‘zi bolalarni o‘qitgan masjiddinga o‘rni bo‘lgan...

O‘zim guvoh bo‘lgan yoki eshitgan voqealarni keltirishimga sabab, ajdodlarimizning ilmga bo‘lgan hurmat-e‘tibori, ilm beruvchi insonlar u yoqda tursin, ilm dargohlari va hatto shu dargohlar ilkiga berilgan yer maydonlarini asrlarki go‘yo mo‘jiza bir maskan o‘laroq his qilishganidir. Bu odat sovetlar vaqq yerlarini avval yersiz odamlarga bo‘lib bergach, so‘ng kolxozlar ixtiyoriga o‘tkazgach, yana yarim asrlar davom qilgani hayratlanarli va e‘tiborga loyiqdir.

Xonliklarda yoshlarga bilim berish tizimi ancha mukammal bo‘lib, bu nafaqat toliblarning ilm egallashi, balki tirikchiligi ham e‘tiborga olinib, ta‘lim olayotgan toliblar va domlalar soniga qarab har bir madrasaga alohida yer maydoni ajratilishi qonuniylashganida ko‘rinadi.

Xiva xonlari arxiv hujjatlarida shunday yozuvlarga guvoh bo‘lamiz: “1275-yilda (milodiy 1858–1859-yillar) Muhammad Murod inoq madrasasi 1800 botmon bug‘doy oldi...

...Sherg‘ozixon madrasasiga qarashli yarlardan 1960 botmon bug‘doy undirilgan...”

Bu o‘rinda gap mazkur madrasalarga xon tomonidan ajratib berilgan yer maydonlaridan olingan hosil haqida ketyapti. Madrasa (va o‘z o‘rnida bolalar o‘qitiladigan katta-kichik masjidlarga ham) tolib-u o‘quvchilari soniga qarab ajratiladigan “vaqq” yerlarini tasarruf etish madrasa mutavallisi yoki masjid imomi ixtiyorida bo‘lgan.

Madrasa mutavallisi yoki masjid imomi ilkiga berilgan vaqq yerlarini vaqqkorlarga ma‘lum miqdor hosilga egalik qilish evaziga berishgan. Vaqqkorlar esa yerlarni korandalarga ijaraga berib, dehqonchilik qilishgan. Ya‘ni, bir yillik sarf-xarajatlarni qoplaydigan darajada hosil ko‘tariladigan vaqq yerlariga na mutavalli, na imom qadam bosishmagan. U yerlarda “tekin ishchi kuchi” sifatida toliblarni ishlatish ta‘qiqlanganini aytib o‘tirmaylik.

Vaqqkorlar korandalarga yerlarni ijaraga berar ekan, ularning o‘z vaqtida bug‘doy ekishlari, oziqlantirishlari, sug‘orishlarini nazorat qilib turishgan. Yoz boshida bug‘doy o‘rib olingach, 3/1 qiymatda korandalar bilan bo‘lishib, asosiy hosilni madrasaga eltib topshirishgan. Bug‘doydan bo‘shagan maydonlarga tezpisar

boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ham ekilib, kech kuzda ulardan ikkinchi xirmon ko‘tarilganida ham taqsimlash yuqoridagi singari bo‘lgan.

Aholi adadi sakkiz yuz ming atrofida bo‘lgan xonlikda XIX asrning o‘rtalarida davlat yerlari masjid va madrasa yerlariga qaraganda ancha kam bo‘lgani yurtda ilm maskanlari soni ko‘pligini ko‘rsatadi. Davlat yerlari deganda xon va uning amaldorlari ixtiyoridagi yerlar tushuniladi. Vaqq yerlari miqdori qanchaligini tasavvur qilish uchun xonlik chor hukumati tomonidan bosib olingan davrda daryoning chap qirg‘og‘ida xonning amakivachchasi ilkida 20 ming tanob yer bo‘lganini eslatish kifoya.

Vaqq yerini korandalarga ijaraga beradigan vaqqkor uning necha tanobligidan kelib chiqqan holda ma‘lum miqdorda soliq to‘laganini ham eslab o‘tish joiz.

...Endi yuqorida tilga olingan Muhammad Murod inoq madrasasi vaqq yerlaridan olingan 1800 botmon bug‘doyning nima maqsadlarda ishlatilganiga to‘xtalamiz. Bu miqdor bug‘doyning bir qismi madrasa mudarrisi, mutavallisi, boshqa xizmatchilari uchun o‘qish yilidagi ish haqlari bo‘lsa, bir qismi toliblarning kundalik oziq-ovqati uchun ishlatilgan. Xiva xonligida bir botmon 36 kilogrammga teng bo‘lganidan kelib chiqsak, demak, madrasa bir mavsumda salkam 70 tonna bug‘doy olgan. Tibbiy me‘yorlarda bir kishi uchun yiliga 220 kilogramm bug‘doy ozuqa sifatida yetishi belgilangan. Agarda faqat ozuqa sifatida ishlatilganida ham, bu miqdordagi bug‘doy salkam uch yuz kishiga yetadi. Madrasalarda o‘sha vaqtda o‘rtacha 100–150 talaba saboq olgan. Domlalar va boshqa xizmatkorlar soni yigirmaga yaqin bo‘lgan. Bundan kelib chiqsak, madrasa mutavallisi bug‘doyning ortiqcha qismini sotib, toliblar ovqatlanishi uchun zarur boshqa mahsulotlarni olgani ma‘lum bo‘ladi.

Qishloq joylardagi masjidlarda faoliyat yuritgan eski maktab ataluvchi o‘quv dargohlariga ham bolalar soniga qarab vaqq yerlari ajratilgan. Odatda, ovul va elatlardagi masjidlarda yigirma nafargacha bola tahsil olgan. Vaqq hosilining bir qismi bolalarga saboq beradigan imom yoki xatib maoshiga, bir qismi o‘quv qurollari xarid qilish uchun sarflangan. Bolalar masjidda tushgacha saboq olgani uchun ularga issiq ovqat berilmagan. Imomlar saboq bilan mashg‘ul bo‘lganidan dehqonchilik qilishga vaqti bo‘lmaganki, ularni rag‘batlantirish uchun aynan vaqq yerlari ajratish usuli qo‘llanilgan.

“O‘zbekiston SSR tarixi” nomli ko‘p tomli asar yozgan “bilag‘on” tarixchilar “xalq maorifi” bo‘limida asiy tamoyilda bo‘lgan vaqq tizimini o‘rganishi, tahlil etish o‘rniga uni “toshbo‘ron qilish”ni ma‘qul topgan: “Vaqq mulklarining ko‘p yoki ozligiga qarab madrasalarning mudarrislari va mullavachchalari turlicha ta‘minlanganlar, lekin ko‘pgina madrasalarda ta‘minot oz edi”. Asrlarki amalda bo‘lgan tizimga tosh otishdan oldin, hech bo‘lmaganda, o‘sha “ta‘minot oz edi” luqmasini biror misol bilan ko‘rsatib berishmagan. Aslida ko‘rsatib beradigan misol topa olishmagan.

Vaqq usuli ta‘lim tizimining davlat tomonidan moliyalashtirilganini bildiradi. Har qanday tuzumda yer davlatning bosh boyligi sanaladi. Tarixda barcha urushlar aynan yer uchun bo‘lgan. Demakki, taxt so‘ragan hukmdorlar vaqq tizimini yaratib, hamisha uni saqlab, takomillashtirishga bosh bo‘lgan ekan, ular yurtdan bilimli ulamlar, olimlar yetishib chiqishi tarafdori bo‘lgan. Sovetlar “zulmkor, ilm-fandan yiroq xonlar” haqida to‘qigan cho‘pchaklar shu o‘rinda o‘z-o‘zidan ko‘pikdek yoriilib ketadi.

Arabiydan tilimizga o‘tgan “vaqq” so‘zining ogohlik ma‘nosini beruvchi “voqif” so‘zi bilan o‘zagi bir. Qarangki, vaqq insonlarga bilim olish, dunyoni tanish, farovon turmush poydevori bo‘lishidan ogoh qilgan, bilimsizlik jaholatga olib kelishidan ogohlantirgan. Yana bizda qadimdan kitoblarni vaqq qilish amalda bo‘lganki, bu endi alohida mavzu.

Ro‘zimboy HASAN



“Shaharni mirshab emas, e‘tiqod qo‘riqlaydi. E‘tiqod nuragan joyda hokim ham, qozi ham, mirshab ham ojiz.

Erkin VOHIDOV





SHAVKAT RAHMON TAVALLUDINING 75 YILLIGI

UMRIM KO‘CHKILARDAY JIMJIT, SHIDDATLI

Boshlanishi 1-sahifada.

QODIRIY VA HOZIRGI YOSHLAR

Hozirgi yoshlarda pokizalik bor, tirik qalblariga diyonat ega, go‘yo pok tabiat yomon ko‘zlardan asrab qo‘yganlarin shularga bergan. Agar tirik bo‘lsa, bir chetda turmay, hozirgi yoshlarga sardor bo‘lardi, goh ko‘kdan yog‘ilgan, goh yerdan chiqqan tuhmat-u baloga qalqon bo‘lardi. Hozirgi yoshlar ham turarmidi jim, yig‘ishtirib qo‘yib shaxsiy hasratini, o‘z nafi yo‘lida har nega qodir yuvuqsiz kaslardan uni asrardi. Sindirib tashlardi uning bo‘g‘ziga o‘rlagan qo‘llarni bittama-bitta, bor ovozi bilan polonchilarmas, xalqning bolasiman degan yigitlar. Qodiriy o‘ylanar yuksak-yuksakda, payqamay vaqtning to‘s-u to‘slarin, poyiga qo‘yadi qo‘llari titrab qarigan gullarin sodiq do‘stlari... Ammo u yuksalgan ulug‘vor toshday, ko‘rmas do‘stlarining yig‘inlarini. Eshitmas jomlarning jaranglari-la otashin alyor-u yig‘inlarini. Bilmadim, do‘stlarin tanirmidi u, poyiga barini haydab keldi vaqt... Bas, ey, Qodiriyning poyidagilar, u do‘stlar ovozin eshitar faqat. Vaqt kelib, qarisa hozirgi yoshlar, to‘la uzmoq uchun umrlik qarzin: voy, do‘stim, jigarim, birodarim Qodiriy poyida yig‘lasa arzir.

Shunda bir seskanib, chin do‘stlariga o‘zining moziydek quchog‘in ochib, yuksakdan egilar, ming bor egilar, tuproqqa tekkuncha nuroniy boshi.

YOSH O‘ZBEK SHOIRLARIGA

So‘zlarni qayraylik, obdan toblaylik, ldrok-la sovutib tag‘in qayraylik, O‘zbekning qorako‘z bolalariga bitta dunyo qolsin hayratlik. Bitta dunyo qolsin mustahkam, eshigan po‘latday daryolar qolsin, chaqilmas toshlarday bir tog‘lar qolsin, musaffo xayollar, samolar qolsin. So‘zlarni qayraylik, do‘stlar, jo‘ralar, g‘afat to‘shagida yotmay, shoshaylik: yashamoq, kurashmoq, o‘lmoq sirlarin bolakaylar uchun ochaylik. Bitta dunyo qolsin mustahkam, unga posbon bo‘lsin o‘tkir she‘rimiz, tokim bu daryolar bemalol oqsin, bolalarga qolsin jannat yerimiz. So‘zlarni qayraylik, tag‘in qaraylik, tokim keskir bo‘lsin bamisli olmos, o‘tkir so‘z qolmasa shoirlaridan, o‘tkir so‘z qolmasa... hech narsa qolmas.

QIYOS

Kuzatdim – har olma rangin sayyora, sollanib turar hur shabbodalarda, limillagan anhor eshilib oqar – shamolda tebrangan shalabbo parda. Tun kelar, qadimiy osoyishta tun,

oy haydar bulutlar – tevalarini, sanoqsiz qoramtir qalqonlar bilan daraxtlar yashirar mevalarini. Yerdagi koinot parchasi – bog‘da, buzila boshlaydi to‘satdan sukun, tinimsiz to‘pillar... Saharga qadar rangin olmalarni o‘ynab otar tun.

BIROVNING GULI...


Devor-la o‘ralgan hovli ichida ariqcha labiga egilgan ko‘yi, atirgul o‘rtanar kimning ishqida, epkindan qaltirar, to‘zg‘igan o‘yi. Ey desam, atirgul yomon titradi, to‘kilib ketdimi dedim hidlari, nuragan devorning bergi yog‘ida buzilgan yuragim nozik pitradi. Shundoq gul... kimsasiz hovli ichida, begona nigohdan titraydi muncha. Munchalar xokisor kimning ishqida, avjida ochilgan, emasdi g‘uncha... Shundoq gul... haliyam boqar hayosiz, axir sal yashirsa deyman dardlarin, eh, sho‘rlik, tobora quyosh ayovsiz, hademay to‘kilar baxmal barglari. Bir o‘tli nigohdan titraydi yomon, jur‘atli bir qo‘lning sadqasi, quli. O‘ziyam gulmisan gul edi, ammo birovning guliydi, birovning guli...

DO‘ST

Odam uzoq yashar, Judayam uzoq, Agar do‘sti bo‘lsa suyanadigan, Agar do‘sti bo‘lsa har qutlug‘ sahar Bahaybat quyoshday uyg‘onadigan. Bugun men umrimning qoq o‘rtasida Dildan tuygancha bir haqiqatni, Sevinib, sog‘inib yashay boshladim Soatga cho‘zilgan har daqiqani: Umrin uzaygani muborak bo‘lsin, Rost bo‘lsin oylarday teran kunlarim. Umrday bahorlar, Bahor bo‘ylarin Taratgan o‘zgacha rangin ko‘zlarim. Osmunday dalani to‘ldirib nurga Bebaho tilsimlar o‘stirgan do‘stim, Yuz ming yelkalarim, Yuz ming yo‘llarim, Yuz ming yuraklarim seniki bo‘lsin! Bag‘rida ezgulik urug‘lari-la, Asrdan asrga o‘tayotgan, do‘stim, sen uchun jonim ham jismimni yorib, Yuz mingta xanjarday Jaranglab o‘tdi. Umrin uzaygani muborak bo‘lsin. Oqari rost bo‘lsin to‘kin daryoday. Endi kunlarimning qat-qatlarida Aslo o‘limlar yo‘q, Faqat hayot bor!

FARISHTALI

Chol-u kampir shoshilmay salkam bir asrni ham yashab qo‘yishdi. Kunjaraga, zog‘ora, patir, tomoshaga rosa to‘yishdi. Kampirini eshitmaydi chol,



eshitmaydi cholni kampiri. Bir-biriga suyanib qolgan, biri ketsa, yiqilar biri. Lek ko‘zlari hamon kuladi, yuzlarida aylanar ziyo. Buziladi dunyo tasviri chol-u kampir bo‘lmasa go‘yo. Har narsaga qodir tabiat asramagin bunday qarishdan! Ikkinisining kiftidan ketmas, sakson yildir ikki farishta.

MANZARA

Oq sukunat portlar sahara, kun nurida yonib, yaraqlab, chopib kirar sovuq shaharga yalangoyoq yashil daraxtlar. Bir zumdayoq devorlar oshib, Ko‘chalarga tarqab ketdilar. Darchalarga yuzlarin bosib, bolalarday qarar kattalar.

UYG‘OQ XOTIRA

1970-yil. Jurnalistika fakultetiga o‘qishga kirolmagach, O‘shga qaytib, viloyat gazetasi tahririyatida musahhih bo‘lib ish boshladim. Shavkat Rahmon nomini dastlab o‘sha yerda eshitganman. Shoir, chamasi biron yil shu dargohda musahhih bo‘lib ishlabdi, bu orada yozgan she‘rlarini ruschaga tarjima qildirib, Moskvaga yuborgan ekan, Oliy adabiyot kursidan o‘qishga qabul qilingani to‘g‘risida xat kelibdi – she‘rlari shunchalik yaxshi ekan. Bilishimcha, Shavkat Rahmon o‘shlik ijodkorlar ichida o‘sha kursda o‘qigan birinchi odam edi. Tahririyat xodimlari uni juda yaxshi ko‘risharkan. Shunchalikki, Shavkat akaning ta‘tildan keladigan vaqtini hisoblab yurishar, har kelishi jamoaning katta-yu kichigi uchun bayramday edi.

Shavkat Rahmon yetmish birinchi yilning erta yozida bizda amaliyot o‘tay boshladi. Bilasiz, 70-yillarda biz hali “rivojlangan sotsializm”ga yetib kelmagandik, demak, uni rivojlantirish lozim edi. Buning uchun shaharliklar ham pichan o‘rish, paxta terish va hokazolarga safarbar etilardi. Bahorning o‘rtalaridan to kech kuzgacha bosh muharrirdan tortib farosh opagacha... dehqonchilik bilan mashg‘ul edik.

Men Shavkat akani ilk bor allaqaysi kolxozning dalasida, piyoz o‘tog‘iga chiqqanimizda ko‘rganman. O‘rtadan tikroq bo‘yli, bug‘doyrang, qotma gavdali yigit ekan. Ammo ko‘zi teran ma‘noli, nigohi o‘ychan, nechundir ma‘yus va ma‘sum edi. Kamgaproq, sipo, ammo kulganida uchqun sochib turadigan ko‘zining jozibasi kishining dilini yoritishirib yuboradigan bir xislatga ega ekan. Egnida sarg‘ish ko‘ylak, moskovcha rumum bilan tikilgan qora katak shim, uchli tufisini avaylab bosardi. Shoir bilan asosan redaksiyaning ulug‘ yoshli xodimlari gaplashar, biz odobli mullavachcha kabi chetroqda turardik.

Ammo yoshlik – yoshlik-da, o‘sha kuni tushlik mahali bolalar shoiri, hazilkashimiz Tursunboy Adashboyev bir o‘yin topdi: sho‘rva qaynayotgan huv o‘sha shiypongacha tuproq yo‘ldan kimo‘zarga poyga chopishamiz deb turib oldi. Bi-ir chopib ketdik, desangiz. Tursunboy aka hammamizni bolaga aylantirib qo‘ydiyo. U yozda nozikkina shoira qizlar himarilib tomosha qilib turishgan bo‘lsa! Shoirlik kimning esiga keladi bunaqa paytda? Chang-to‘zon ichidan Go‘ro‘g‘li sultonday bo‘lib chiqib kelsak, hammaning tishlari yaraqlab ko‘rinadi – uch-to‘rt kundan beri dala

oftobi, qolaversa, bu “poyga”ning chang-to‘zonida habashdekkina bo‘lib ketgan ekanmiz. Shavkat Rahmon bilan shu tariqa tanishib, yaqinlashib ketgandik.

Shavkat Rahmon har kelishida viloyat gazetasiga she‘rlarini taqdim etar, ular shoirming qaytishiga qadar chop etilardi. O‘sha yillardagi gazeta taxamlarini qara-

qoliplarga sig‘avermaydigan stixiyani anglab, she‘riy tafakkur prizmasidan o‘tkazish, Lorka badiiyatini o‘zbek tilida ifodalash Shavkat Rahmonning ko‘p yillarini oldi.

Tabiiyki, Lorka bilan “o‘rtoq tutinish” shoir ijodida izsiz ketmadi. Bu izlanishlar samarasi o‘laroq, Shavkat Rahmon



sangiz, Shavkat Rahmonning birtalay dilbar she‘rlariga duch kelasiz.

Men buni alohida ta‘kidlab aytayotganimning sababi bor. Gap shundaki, shoir sifatida Shavkat Rahmonning ijodiy yo‘lida o‘ziga xos uch davr – uch bosqich borday, nazarimda. Bulardan birinchisini shartli ravishda O‘sha, ikkinchisini Moskva, uchinchisini esa Toshkent davri deb atasa bo‘lar, ehtimol. O‘qishning dastlabki yillarida Shavkat Rahmonning she‘rlarida hali O‘sh ruhi – sodda va samimiy bir ifor taralib turganday edi.

Oradan yillar o‘tdi, bu vaqt ichida men Toshkentga o‘qishga kirdim, Shavkat aka esa adabiyot kursini tamomlab, Toshkentda, nashriyotda ishlay boshladi. Bu yillarda Shavkat Rahmon, garchi jo‘shqin bir shoir sifatida adabiy davralarning markazida turgan bo‘lsa-da, izlanishda edi – o‘z ruhiga mos keladigan adabiy olamni topish, undan o‘rganish, yanada o‘sinh, yangicha tuyg‘u va kayfiyatga oshno bo‘lish va bularni she‘riyatga olib kirish niyatida edi. U Lorkaning she‘riy dunyosiga shu zaylda kirib bordi. Ispan shoirining qizg‘in va otashin muhibiga aylandi. Kutilmagan tashbehlariga boy, shaklan butunlay o‘zgacha, an’anaviy o‘zbek she‘riyatidagi

she‘rlarida keskin bir shiddat, Lorka she‘rlarida ko‘p uchraydigan “mahalliy” manzaralar tasviri, dali-g‘uli soddalik, to‘satdan yopiriladigan tuyg‘ular paydo bo‘ldi. Va aynan mana shular keyinchalik shoir ijodidagi yetakchi o‘ziga xosliklardan bo‘lib qoldi. Ammo boya aytganim – dastlabki yillar ijodiga xos bo‘lgan mungli, shu she‘rlar asosan O‘sh gazetasi sahifalarida qolib ketdi.

Moskvada yozgan bir she‘rida Shavkat Rahmon shu paytga qadar yozgan she‘rlari jamlangan daftarni yoqib yuborgani, she‘rlar chirs-chirs yonib olovga aylanayotganida zarracha ham achinmay qarab turganini tasvirlagandi. Menimcha, bu shunchaki badiiy xayol emas, bor gap, shekilli. Agar shunday bo‘lsa, bu betakror qalam sohibining havaskorlik chog‘idagi she‘rlarini endi ana shu gazeta taxamlari orasidan topib, tiklash mumkin bo‘ladi, xolos. Bu juda zarur. Zero, Shavkat Rahmonning ana shu ilk she‘rlari uning ijodidagi o‘ziga xosliklarni yanada teranroq aks ettiradi. Dastlabki yillardagi ma‘sum soddalik, samimiylilik Lorka ruhiga xos ajabovur tashbehlariga o‘xshash bo‘lib, Shavkat Rahmon ijodining uchinchi bosqichini belgilab berdi. Bu davr she‘rlarida u

tuyg‘ularning achchig‘ini, iztirobga soladiganini eng teran milliy ifodalar bilan tasvirladi.

...Orada Shavkat Rahmon bilan ijodkorlar bilan bevosita muloqotda bo‘lishsin, deya yozuvchi va shoirlarni institutga tez-tez chaqirib, uchrashuvlar uyushtirib turardi – shunaqa yaxshi odati bor edi.

80-yillarning oxirrog‘i edi, shekilli, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Usmon Azim va hokazo bir necha yosh, peshqadam shoirlar institutimizga kelishdi. Taajjubki, bu yosh shoirlarning ba‘zisi davra to‘rida o‘tirgan ko‘yi, allaqanday taltayish-u kekkayish bilan davradagi taniqli allomalar qarshisida kresloga deyarli yotib olishgan, chal-kashitrgan oyoqlari olimlar tomon bepisand uzatilgan edi. Dahosifat gaplari, olifanamo sigaret tutatishlari ham allaqanday o‘xshovsiz tuyulardi. Holbuki, davrada Izzat Sulton-u Homil Yoqubovday zotlar ham bor edi. O‘shanda men Shavkat Rahmonning bir fazilatini kashf etdim: u juda kamtar, oddiy va samimiy inson ekan. Biroz bo‘g‘iq, ammo hayajonli ovoz bilan she‘r o‘qidi, ijodiga doir savollarga javob qaytardi, tinglovchilarga rahmat aytib, joyiga o‘tirdi.

...1990-yilda qirg‘iz adabiyotining oqsoqoli To‘qtag‘ul tavalludining 125 yilligi Qirg‘izistonda bir hafta bayram qilib nishonlandi. To‘ymisan to‘y bo‘ldi. O‘sha paytdagi davlat rahbarlaridan birining: “Qirg‘izistonda To‘qtag‘ul to‘yi-dan kattaroq tantana bo‘lishi mumkin emas”, degan so‘zidan oq ushbu bayram shukuhini tasavvur qilsa bo‘ladi.

Bu anjumanga O‘zbekistondan o‘n kishi mehmon bo‘lib qatnashgan edi. Bayramning tantanali ochilishi va ikki kunlik xalqaro ilmiy konferensiyadan so‘ng bizga muntazir bo‘lib turgan 50 ta avtobusga o‘tirib, Qirg‘iziston janubiga – To‘qtag‘ul tug‘ilgan o‘sgan Ketmontepaga yo‘l oldik. Dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan mehmonlar bayramga o‘zgacha bir fayz bag‘ishlar edik. Yo‘l bo‘yi hazil-huzullar, ilmiy bahslar, o‘zaro tanishuvlar, har bir mehmon yo mezbomning o‘z ona tilida she‘r o‘qishi

yo ashula aytishi, deganday...

Har bir avtobusning yarmida odamlar bo‘lsa (yo‘l juda baland, vahimali Tuyaoashuv dovonidan o‘tadi axir), yarmi qirg‘izlar “yo‘loziq” deb ataydigan noze‘matlar bilan to‘la. Qirg‘iz mezbomning qo‘lini qaytarib kim baraka topibdi? Nihoyat, dunyoning eng baland suva-yirg‘ichlaridan biri – qirg‘izlar “oq qor-u ko‘k muz” deb ataydigan Olatov o‘rkachidagi yarim soatlik hordiq chiqarish paytida Shavkat aka bilan yo‘liqib qoldik. Ularning avtobusi shoirlarniki, biz minganimiz olimlarniki bo‘lganidan, kechagi kundan beri endi ko‘rishishimiz edi.

Nima uchundir, Shavkat Rahmonning mashqi pastroq, kayfiyati ham lanj edi. – Ha, Shavkat aka, nima bo‘ldi, – deb so‘radim. – Mazangiz yo‘qmi? – E, ko‘rmaysizmi, – shoir o‘zi tushib kelgan avtobusga ishora qildi. – Bu-larning hammasi ichar ekan, kayf bilan kelishiyapti. Gaplashib o‘tirishga odam yo‘q.

Men shoirming ichmasligini bilmas ekanman. Purviqor, ulug‘ tog‘lar oralab ixlos bilan o‘tib kelayotgan pokiza shoirga hurmatim yanada oshdi.

Shavkat aka meni o‘z avtobuslarida birga gaplashib ketishga taklif etdi, yonidagi joy bo‘shligini aytdi. Ammo men allanimalarni bahona qildim, biznikilar meni yo‘qotib qo‘yishsa xavotirlanishadi, dedim, xullas, siz ham, kabob ham kuymaydigan tarzda, dilini og‘ritmaslikka harakat qilib rad etdim. Asl sabab esa boshqa yozda edi: ko‘ngil o‘lgur bo‘shroq, mezbomlar astoydil “ko‘ranib” turib olgan chog‘da, noiloj... degan andishada... Holbuki, agar men o‘shanda dovondan to‘ To‘qtag‘ul shahriga qadar Shavkat Rahmon bilan birga ketsam, bu mening shoir bilan qurgan eng uzoq va chin ma‘nodagi suhbatim bo‘lar ekan. Endi bilsam, o‘shanda shoir zo‘r hayajonda ekan, qardosh xalq so‘z san‘atkorining tavallud kunlari, uning turbatiga kelayotgan bir ijodkor sifatida To‘qtag‘ul asarlari, ulardagi sodda xalqona ifodalarini o‘zbek tilida qanday aks ettirishni o‘ylab kelayotgan ekan. Shu safardan keyin u To‘qtag‘ulning o‘ndan ortiq she‘rini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

Endi menga shunday tuyuladiki, Shavkat Rahmon umrining juda qisqa ekani botin payqaganday, ichkilik ichib, vaqtixushlik qilishga ham vaqti yo‘qligini bilganday... Darhaqiqat, o‘qigan odam biladi, uning she‘rlari – juda

hushyor, tiyrak she‘rlar, nazarimda, ular sarmast aljirayotgan odamni ham o‘ziga keltirguday darajada hushyor bo‘lib tuyuladi.

Ozgina, unda-bunda ko‘rishib qolgan chog‘larimizdan bilganim, Shavkat aka avvalo mard odam edi. Bir so‘zli, o‘ta prinsipial, prinsip uchun biron kishiga, hattoki vaqtincha, loaqal murosayi madora uchun ham... aslo yon bermaydigan hassos shaxs edi. Qo‘rqmas, dangalchi, dadil. Albatta, bu gaplarning zaminida ham bir talay voqealar turibdi, biroq ba‘zi sabablarga ko‘ra ularni bu o‘rinda keltirishim durust emasday...

Yana bir o‘ziga xosligi – ona shahri O‘shga ayrica muhabbat qo‘ygan edi, unga ming-ming rishtalar bilan bog‘langandi. O‘shliklar orasida uni tanimaydigan, yo otini eshitmagan odamlar bo‘lmagani kabi, o‘zi ham behisob o‘shliklarni, uning tevaragidagi yuzlab odamlarni tanir, ular bilan qadrdon edi. Shavkat Rahmonni o‘shliklar bu qadar ehtimom qilishning sababi – uning zo‘r shoirligiga emas, nazarimda. 80–90-yillarda uning Toshkentdagi kamtarona kvartirasi O‘shdan keladigan shoir-yozuvchilar, jamoat arboblari uchun ma‘lum ma‘noda qarorgoh bo‘lib qolgan edi. Toshkentda turib, Shavkat Rahmon ona shahridagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitga, adabiy hayotga faol aralashar, unga qo‘lidan kelgancha yordam berar edi. Xuddi shu sabab, mash‘um O‘sh voqealari uning yuragiga beadad iztirob soldi, talay vaqt u beomon va vahshiyona taloto‘plardan o‘ziga kelolmay yurganini ko‘rgan edim. Oradan birmuncha vaqt o‘tib, “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasida Shavkat Rahmonning “MA(x)FIYA” degan mashhur maqolasi bosilib chiqdi. Unda shoir aqib bir xolislik bilan ana shu voqealar negiziga nazar tashlagan va uni chet kuchlar palid niyatlarini amalga oshirish uchun uyushtirganini dalillab ko‘rsatib bergan edi...

Yana she‘riyatga qaytsak. Shavkat Rahmon ijodi haqida mening fikrim shuki, XX asr o‘zbek she‘riyatini bir kitob desak, uning muhim sahifalari Shavkat Rahmon va uning tengdoshlari ijodidan tashkil topgan. Mustaqillik arafasidagi va hurriyat davri o‘zbek she‘riyatining asosiy ruhi – Shavkat Rahmon she‘rlari ruhi bilan uzviy payvasta. Binobarin, keyingi asr so‘z san‘ati uchun u o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘taydi. Demak, Shavkat Rahmon va uning hamnafas do‘stlari ijodini teran tadqiq etish hozirgi adabiyot ilmi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Zuhridin ISOMIDDINOV



MILLAT TOLEYIDA PORLAGAN YULDUZ

O‘zbekiston xalq artisti Erkin Komilov xotiralari

Boshlanishi 1-sahifada.

– E, Shukur aka! – degancha qo‘lini yozib kela boshladi Sharof aka.

– E, Sharofjon! – deya istiqboliga yurdi ustoz va ikkalasi quchoqlashib ko‘rishdi. Hol-ahvol so‘ralgach, davlat rahbariga meni tanishtirdi. Keyin bir chetdagi stulga o‘tirib ikki dahoning suhbatiga quloq berdimg.

– Men hozir Maqsud Shayxzodaning tragediyasida Mirzo Ulug‘bekni o‘ynayapman. Xalq yaxshi qabul qilyapti! Odamlar kelyapti. Shu, Shayxzodaga aytsangiz-da, Amir Temur haqida bitta asar yozib bersa, o‘ynasam, – dedi Shukur Burhon.

Sharof Rashidov mamnun qiyofada eshitib o‘tirgandi. Ustozning taklifidan keyin peshonasiga mushtini tirab uzo-o-oq vaqt haykalday qotib qoldi. Hamma jim. Keyin shikasta ovoza:

– O‘shanday yorug‘ kunlar ham kelar... Sabr qiling... – dedi.

U paytlar Amir Temur nomi qatag‘onga uchragan, u haqda ilmiy ish olib borgan Ibrohim Mo‘minovday tabarruk zot ham bosimlar ostida yashar edi. Sharof Rashidov akademikni jon-jahdi bilan himoya qilayotgan paytlar ekan. Agar Sohirqon obrazni sahnaga olib chiqilsa, Maqsud Shayxzoda ham, Shukur Burhon ham qaltis vaziyatga tushib qolishi mumkinligi, ularni himoya qilishga kuchi yetmay qolishini o‘ylab siqilgandi yurt otasi.

Shukur aka hammasini tushundi. Lekin mashinaga o‘tirar ekan, qizishib ketdi: “Bu qanaqa zamon?! Amir Temur haqida spektakl qo‘yish mumkin bo‘lmasa!” Shukur Burhonning gavdasi butun mashinani silkitib yubordi, ovozidan temir-tersaklar, oynalar zirillab ketdi...

Agar Shukur aka o‘ynaganda, Amir Temur obrazi bo‘yicha katta bir maktab qoldirib ketgan bo‘lardi. Ulug‘ amirni Tesha Mo‘minov ham, men ham, Yoqub Ahmedov ham, Tolib Karimov ham o‘ynadik... U Temurbek emas! Agar Maqsud Shayxzoda yozib, Shukur Burhon o‘ynaganida – ana u Amir Temur bo‘lardi! Afsuski, shunday bebaho san‘at asari yaratilishiga mustabid tuzum yo‘l bermadi. Ustozlar birin-ketin o‘tib ketishdi...



1971-yili Ilinskiy degan rejissyor ukrain filmi uchun Toshkentda ko‘rik o‘tkazdi. Eskadron komandiri Ergash Sobirov roli uchun men ham qatnashdim-da, javobi chiqmasdan Farg‘ona viloyatiga gastroлга jo‘nab ketdim. Bir mahal telegramma bordi vodiya. Ko‘rikdan o‘tganim, to‘xtovsiz Ukrainaga yetib borishim kerakligi qisqa va aniq qilib yozilgan edi. Nima qilishni bilmay qoldim. Bunaqa uzoq safarga chiqmaganman hali, bu yog‘i xizmat safari vaqtda teatrn tashlab ketish... Oxiri Shukur Burhonga yorildim. Ustoz teatr direktori Iskandar Musabekovdan ruxsat olib berdi. Duo olib aeroportga chiqdim. Borsam, chipta yo‘q. Orta qaytdim. Shukur akaga vaziyatni tushuntirdim. O‘ziga xos salobat va vazminlik bilan “Hm” degancha o‘ylanib turdi-da, grimxonaga kirib ketdi. Kostyum-shimlarini kiyib chiqib, men bilan Farg‘ona aeroportiga bordi. Kassadagi qizga qarab:

– Menkim, Shukur Burhon – “Narodniy artist SSSR”, – dedi guldurak ovoz bilan.

Keyin Kiyevga bitta bilek so‘radi, “Yo‘q” degan javob bo‘ldi. “Unda Moskvaga bering”, dedi. U yoqqa ham bilek tugagan ekan. “Iye”, dedi ustoz qalin qoshlarini chimirib, keyin “Toshkentga ikkita bilek!” dedi shart kesib. Hayron bo‘ldim, balki o‘zi ham mening bahonamda uydagilarni ko‘rib qaytsa kerak-da, deb o‘yladim.

Poytaxtga uchib bordik, aeroport rahbariyatining xonasiga pasportimni olib kirib ketdi. Ko‘p o‘tmay Kiyevga bitta, Farg‘onaga bitta chipta ko‘tarib chiqdi. O‘sha paytda yosh boladay irg‘ishlaganim ham, yig‘lab yuboray deganim ham esimda. Ha, yana xijolat ham bor edi. Shukur aka aeroportning o‘zida mening qornimni to‘qladi. “U yoqdagilarga o‘zbek aktyorlarining kimligini bildirib qo‘ygini!” deb ruhlantirdi-da, o‘zi to‘g‘ri vodiya uchib ketdi. Na uyiga bordi, na boshqa joyga.

To‘rt yarim soat uchgan bo‘lsam, xayolimda faqat “Ustoz nega bunday qildi?” degan savol aylanardi. Hozirgacha ham bu olijanoblik sirini izlayman. Xayolimda esa javob savolning o‘zida, hatto boshida turganini his qilaman: “Ustoz!”

Shukur Burhon sahnada o‘ynashni emas, yashashni yaxshi ko‘rardi. Hatto, gapirmagan vaqtda ham u rolda bo‘lardi. Ustoz sahnada

tomoshabinga teskari turgan bo‘lsa ham, odamlar Shukur akaning yuzi qanday holatda, ichidan nima o‘tyapti, hammasini sezib turardi. U kishi ijro etgan rollar uchun baquvvat yurak kerak edi. Ustoz vafot etganida, bir shoir: “Gavda-ku, lahadga kirdi. Ammo yurak qanday sig‘di ekan u yerga?!” deya bejiz yozmagandi. Ma‘nosi shunaqa edi.

Shukur aka ayniqsa Mirzo Ulug‘bek rolini o‘ynaganida, yuragining bor kuchini sarflardi. Bir kun gap orasida ustoz menga sinovchan qarab turdi-da, “Senga kelajakda Mirzo Ulug‘bekni o‘ynataman”, dedi. Ko‘ngil uchun “Ha, nasib” deb qo‘ydim-u, o‘ylab ketdim. “Ustozning xayoli biroz... Men qanaqa qilib Ulug‘bekni o‘ynayman? Shukur Burhon o‘ynayotgan rolni-ya! Yo‘q, yo‘q...”

U paytlar ustozlarimiz o‘lmaydiganday tuyulardi bizga. Yana rol uchun raqobat juda kuchli edi. Qolaversa, tarbiya shunaqa bo‘lgandiki, o‘zi loyiq bo‘lmagan rolga o‘zini hurmat qilgan aktyor qo‘l urmasdi. Ustozning o‘zi bu borada boshqalarga namuna edi.

Bir kuni statsionarga borsam, ustoz “Otello”dan bir parchani ko‘rsatib berdi. Tasavvur qiling, grimsiz, libossiz, dekoratsiyasiz, shunchaki, shifoxonaning oq devorli xonasida “Ro‘molcha sahnasi” qo‘yilardi. Fikrimni so‘radi. Hayratimni aytdim. “Yo‘q, buni Abror Hidayatov maromiga yetkazgan. U darajaga chiqara olmasam, o‘ynamayman bu rolni!” dedi qat‘iy. Ustoz olamdan o‘tdi. Vaqt suvday oqib ketdi.

...Bir kuni Samarqandga davlat arboblardan biri tashrif buyuradi. Teatrqa kiradi. “Repertuarda Mirzo Ulug‘bek siymosi bormi?” deb so‘raydi. Yo‘qligini bilgach, “Bu qanaqa bo‘ldi? Qirg‘ yil Movorounnahrni so‘ragan, astronomiyani dunyoga o‘rgatgan odamga bag‘ishlangan spektakl yo‘qmi? Qo‘yilsin!” deydi. Shu bilan Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi olinib, Olimjon Salimov rejissyor etib tayinlanadi. “Bosh rolni kim ijro etadi?” degan savol o‘rtaga tashlanadi. “O‘zbekistonda Ulug‘bekni o‘ynaydigan artist yo‘q-kul!” deganlar bo‘lgan, boshqa davlatdan aktyor chaqirish masalasi ko‘rilgan. “Bo‘lmaydi! O‘zbek xalqining ajdodini boshqalar qiyomiga yetkazolmaydi. Shukur Burhonning shogirdlaridan topilsin!” degan buyruq bo‘lgan “yuqori”dan. Xullas, meni tanlashdi.

Bordim. Qo‘limga 44 varaq she‘riy matn berildi. 44 varaq! Uni yodlash bir tomon bo‘lsa, nazmiy ohangda ruhiyatini ochib berish bir tomon edi. Rozi bo‘lishga bo‘ldim-u, shu desangiz, bir satr ham miyamga kirmaydi. Na uyquda halovat bor, na yeb-ichishda. Oxiri bo‘lmadi, uyga qo‘ng‘iroq qilib, xotinimga “Bo‘ldi, ketaman teatrdan! Aktyorlik tamom!” dedim. Rafiqam bo‘lsa, “Dadasi, bunaqa xayollarni miyangizdan chiqarib tashlang.

Butun Toshkentda “Mirzo Ulug‘bek” qayta qo‘yiladi, deyishyapti. Teatrdan o‘tiravermay, ko‘cha-ko‘yga chiqing. Samarqandda aziz ziyoratgohlar ko‘p. O‘sha yerlarga borib, yengillashib keling”, dedi.

Azonda turib mehmonxona derazasidan ufqqa qaragam, bir gumbaz ko‘rindi. Shu joyni mo‘ljal qilib ketaverdim. Borsam, Amir Temur maqbarasi ekan. Farrosh ayol meni tanib, “Erta kelibsiz-da”, dedi-da, kalitni olib, maqbarani ochib berdi. Ko‘chalar tinch, gumbaz ostida teran sukunat. Qabrlar vazmin turibdi. Ichim to‘lib ketdi. Mirzo Ulug‘bek qabriga yaqin borib, cho‘k tushdim-da, Qur‘on tilovat qildim. Yig‘layman, oyat o‘qiyman, yig‘layman...

Har kuni saharlab kelishni odat qildim. Yurak ham, oyoq ham shu yerga tortadi, deng. Oxirgi borganimda ziyoratgohning mas‘ul rahbari kutib turibdi. “Erkin aka, har kuni kelyapsiz ekan. Spektakldagi rolingizni ham eshitdim. Bugun sizni xilxonaga – Mirzo Ulug‘bek qabirining boshiga olib tushaman”, dedi. Meni yolg‘iz qoldirib, chiqib ketdi.

Endi ichimdan bir yig‘i otilib chiqdi, nari-berisi yo‘q. Mirzo Ulug‘bekdan ruhiy madad so‘ray boshladim. Shu lahzada qulog‘im ostida ustozim Shukur Burhonning: “Senga kelajakda Mirzo Ulug‘bekni o‘ynataman!” degan ovozi yangrab ketdi. Birdan yaqin tarix jonlandi ko‘z o‘ngimda. Endi yig‘i to‘xtagan, ongim tiniqlashib, maqsadim ayonlashgandi. Mubarak qabrga temillar ekanman, dilimdan o‘tganini tilimga chiqardim: “Bobojon! Men sizning aziz siymongizni gavdalantirishga munosib emasman. Buni tan olaman. Lekin yurt ulug‘lari qo‘ymayapti. Ustozimning hurmatidan menga ishonch bildiriyapti. O‘zim uchun so‘ramayman, Shukur Burhonning pok xotirasi, sharafi uchun shu rolga kirishmoqchiman. Rozi bo‘ling mendan, bobojon!”

Qur‘on o‘qib, teatrqa ketdim. Yigirma kunda 44 varaq matnni yodlab, spektaklni o‘ynab, premeralarni o‘tkazib qaytib keldim. Keyin Toshkentda, Andijonda qo‘yildi bu spektakl. Ko‘rganlar iliq fikrlar bildirdi. “Ustozingga rahmat!” dedi. Ustozimning qabriga bordim-u, hammasini Shukur Burhonga so‘zlab berdim...

Shukur Burhon buyukmidi? Buyuk edi. Buning dalili shuki, ustozdan keyin uning darajasidagi aktyor ko‘rmadi o‘zbek teatri. Hozir ham yo‘q...

Agar Shukur Burhon bo‘lmaganida, milliy teatrimiz san‘atida butun boshli bir necha avlod shakllanmay qolib ketardi.

Ustozning oxirati obod bo‘lsin! U kishi Omon Matjon ishora qilganday, xalq peshonasidagi yulduz edi.

Otabek BAKIROV yozib oldi.

YOD ETIB...

Iste‘dodli yozuvchi do‘stim Bahodir Qobul bilan akademik Baxtiyor Nazarov (1945–2022)ning uyiga borgan edik. Domla bizni ko‘rib, jo‘ra ekanimizni eshitib nihoyatda mamnun bo‘lgandi. “Adabiyot ziyosi” gazetasining birinchi sahifasida u kishining katta rasmi, ichki betida zukko adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning domla xususida yozgan “Ilm yo‘li – izlanish va sabotdir...” nomli maqolasi bor edi. Bu mujdadan domla ikki karra quvondi.

Suhbat bo‘ldi, ko‘p gaplar gapirildi. Shu betob holida ham adabiyot g‘ami, so‘z dardi domlanning o‘z dardiga qo‘shildi. Gurungni batafsil yozish niyatim yo‘q. Xayrlashar mahali bizga kitob sovg‘a qildi: “Baxtiyor Nazarov. Mening lahzalarim” (she‘rlar). Kitobning bosilganiga hozir besh yil bo‘ldi. Ora-orada she‘rlarni o‘qidim. Baxtiyor Nazarov domlamizning sakson yillik tavallud kunlari munosabati bilan uni qayta o‘qidim, olimning shoir qalbi, xususan, inja to‘rtliklaridagi dil izhorlari e‘tiborimni tortdi.

To‘g‘risi, Baxtiyor Nazarovning she‘rlarini avval o‘qiganimda, u kishining olimona nazariy qarashlari menga xalaqit berar, she‘rning ichki qonuniyati, ramzli tili, so‘z san‘ati mohiyatini chuqur bilgan olimning yozganlaridek taassurot qoldirar edi. Bu safar boshqacha o‘qidim, to‘g‘risi, she‘rlaridagi dardlari, hissiyotlari, hikmatlari ichkarisiga kirib qaragam, Baxtiyor Nazarovning olimligi ham xayolimdan ko‘tarilibdi. Men hikmatgo‘y bir shoir she‘rlarini, xususan, bedilona, xayyomona, qolaversa, Baxtiyor Nazarovga tengdosh Abdulla Oripov to‘rtliklariga xos quyma butunlikni zavq bilan mutolaa qildim.

Olim qalbining lirik lahzalari

Kitobda she‘rlarga xronologik tartib berilgan – domlanning roppa-rosa yarim asr davomida yozilgan ko‘ngil daftari. Bu daftar sandiqda edi, endi-endi oshkor bo‘ldi.

Baxtiyor Nazarov she‘r ruhini, ijodkor qalbini nozik tushunardi. Shu jihatdan, nazarimda, adabiyotshunos olimning so‘zining mas‘uliyatli, mashaqqatli yo‘lidagi bu kabi mashqlari muhim sanaladi va boshqa shoirlar ijodini anglashga yordam beradi.

Domlanning odamiylik fazilati har jihatdan ibratga munosib edi. U kishida ortiqcha kalondimog‘lik, manmanlikni, to‘g‘risi, sezgan emasman. Aynan ichida bir shoir yashagani uchun ham ko‘pchilikka “shoir” deb murojaat qilardi.

Domla umrining bir qismi kuchli mafkuraviy muhitga to‘g‘ri keldi. Sotsializm, kommunizm, partiya, syezd va uning qarorlari ustuvor zamonlar edi u davrlar. Muallif shunday bir pallada bugun biz yashab turgan zamonga qarata, 1967-yili “XXI asrdagi tengdoshlarimga” degan she‘rini yozadi va o‘sha zamonning “tabarruk” tushunchalariga, dasturiy qarashlariga shubha bilan qaragani seziladi:

*Ishonaman, keladi, ishon,
Men firqa, sen nofirqa emas,
Oddiygina, qisqagina, bas,
Men odamman, deydigan zamon.*

Shu mafkuraviy muhit ichida turib, unga ko‘ngil bog‘lamay, aksincha, uning asosi puch ekanini anglash uchun ham ijodkorning albatta teran sezimi, anglami bo‘lishi lozim. Domla shunday bebaho tamiz egasi edi.

Baxtiyor Nazarov she‘rlari markazida inson, uning ko‘ngil hissiyotlari, dunyo va uning holatlari asosiy mavzu sifatida namoyon bo‘ladi. Oilasiga, umr yo‘ldoshi Muharram ayaga, farzand va nevaralarga bag‘ishlangan she‘rlar ham oz emas. Shu o‘rinda, turli yillarda Muharram ayaga bag‘ishlab yozilgan ikki to‘rtligini keltirishni ma‘qul ko‘rdim:

*Dunyoda eng zo‘r buyum so‘zdir,
Insonga eng zo‘r tuyum so‘zdir.
Sen borsan-ki, yozganlarim – she‘r,
Sensiz ular bir uyum so‘zdir.*

*Umidim ko‘nglimning ziyolaridir,
Yulduzlar sevgimning imolaridir.
Kiprigim ochilib-yumilishlari
Sizga ko‘zlarimning duolaridir.*

Darhaqiqat, bunda samimiyat bor, bunday o‘ziga xos duoni, hoynahoy, siz ham ilk bor eshitib turgan bo‘lsangiz kerak, azizlar.

Hissiyot tizginini, lirik kayfiyatga mos lahzalarni ushlab qolish, lahzani ovlab, uning

ichida biror muddat yashash, vaziyatni imkon qadar tugal bayon etish oson emas. “Mening lahzalarim”da bu yo‘sindagi she‘rlar ko‘p.

Domlanning to‘rtliklaridagi quyma fikrlar o‘tgan saflarning xuddi shunday ixcham janrdagi she‘rlari va ulardagi hayot falsafasini yodga soladi.

*Hayot ekan, inson uchun bir ish kerak,
Neki qilma, yaxshilikka burish kerak.
O‘zi bo‘lib yumush emas ekan bu ham,
Yaxshilikni qilishni ham bilish kerak.*

“Bu dunyoga nega keldik, yaxshini bilmasak biz, Bu dunyoga nega keldik yaxshilik qilmasak biz”, deganlaridek, avvalo muallifning o‘zi yaxshilik qilishni biladigan nodir insonlar toifasiga mansub edi.

She‘r bilan ko‘ngil – egizak tushuncha. Ular bir vaqtda, bir paytda bunyod bo‘lganga o‘xshaydi.

*Ko‘ngil yaraldi-ki, sen bilan mashg‘ul,
Dunyo devonadir, she‘r esa kashkul.
She‘riyat shunday bir ajib xilqatki,
Faqat aql bilan anglamoq mushkul.*

Ko‘ngil yaralganda to hanuz so‘z bilan, she‘r bilan, hissiyotlar bahsi bilan mashg‘ul. She‘rni ko‘ngli orasta odam anglaydi, his etadi. She‘rni anglash uchun ilmiy unvon yoki darajali bo‘lish shart emas. Vodiya shu kunga dovur oddiy odamlarning jam-

lanib, navoiyxonlik qilishlari, dehqon va bog‘bonlar yig‘ilib, zavq-shavq bilan g‘azal sharhlashlaridan xabarim bor.

Kitobdagi she‘rlar orasida lirik turning turli shakllari uchraydi. Domla sharqning eng keng tarqalgan g‘azalini ham, g‘arbnig eng mashhur sonetini ham mashq qilib ko‘rgan ekan. Ammo statistikaga ko‘ra, to‘plamda to‘rtlik asosiy o‘rinda turadi.

*Aybsiz yo‘q, gap aybni yopa bilishda,
Sabr – jahlg suv sepa bilishda.
Har kimning baxti bor dunyo sahnida,
Baxtiyorlik – uni topa bilishda...*

Domlanning she‘rlari orasida o‘z ismini qo‘shib yozganlari ham bor. Demak, baxtiyorlik inson o‘z baxtini topishi bilan bog‘liq. Baxtiyor Nazarov o‘z ismiga mos yashadi, unga chin ma‘noda hayotda, oilada, jamiyatda, jamoada baxtiyorlik nasib qildi, deb o‘ylayman.

Gapim avvalida eslangan maqolasi tuganchida Ibrohim Haqqul bunday yoza-di: “Mayda shaxs yoki xashaki kimsa o‘z so‘zi va ma‘naviy qiyofasiga sohib bo‘lmaganidek, ulkan olim ham hech payt maydalik yo olchoqlik “tulpor”iga minib zafarga qarab chopmaydi. Shuning uchun ulkan olim xarakterida boshqa bironvikiga o‘xshamaydigan qat‘iyat, ishchanlik, faoliyatida esa yaratuvchilik va himmat ruhi gurkirab turadi. Shu jihatdan ham Baxtiyor Nazarovdan o‘rgansa, ibrat olsa arziydi”. Haq gap!

Akademik Baxtiyor Nazarovning hayot yo‘li, odamiyligi va ilmiy-ijodiy faoliyatidan – shaxsining har jihatidan ibrat olsa arziydi, albatta! Jumladan, uning she‘rlari ham bu xislatdan mustasno emas.

Bahodir KARIM, professor



SIFATLI TA'LIM KAFOLATI

Boshlanishi 1-sahifada.

Mutasaddirlarga yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish uchun muddat belgilanib, ayrim mas'ullarga chora ko'rildi. Kelgusi rejalar va vazifalar aniq ko'rsatib berildi. Mazkur videoselektorning qaynoq nuqtalari sharhi bilan quyida ko'talib o'tamiz.

Bu yil maktabgacha ta'limda o'rinar sonini 182 mingtaga ko'paytirish rejalashtirilgan. Ularning 82 mingtasi yangi bog'chalar hissasiga to'g'ri keladi. Qolgan 100 ming o'rin eski bog'chalarni ta'mirlash orqali hamda xususiy sektor ishtirokida tashkil etiladi. Buning uchun maktabgacha ta'lim qamrovi 80 foizdan past bo'lgan tuman va shaharlarda bo'sh yerlar auktionsiga chiqariladi. Ularda davlat-xususiy sheriklik asosida bog'chalar qurish bo'yicha uch yillik dastur ishlab chiqiladi. Bunday muassasalarga subsidiya berish, tarbiyachilar maoshini qisman qoplash tartibi joriy qilinadi.

Sharoit yaratib berilgani bilan undan to'g'ri foydalana oladigan kadrlarga ham ehtiyoj katta. Bugungi kunda davlat bog'chalaridagi tarbiyachilarning 38 foizi, xususiylarida esa 24 foizi oliy ma'lumotli. Shu bois, yangi o'quv yilidan o'rta maxsus ma'lumotli tarbiyachilar uchun 5 kun ishlab, 1 kun o'qiydigan bakalavr ta'lim shakli joriy qilinadi. Kelasi yili har bir viloyatda bog'cha tarbiyachilarining pedagogik mahoratini oshirishga metodik ko'maklashuvchi "Yangi avlod" bog'chalari barpo qilinadi.

Olis hududlardagi 74 ming o'quvchi maktabga 5–7 kilometrdan qatnayapti. Qashqadaryo va Surxondaryodagi 100 ta maktabga bepul avtobus qo'yilgan. Bu zarurat boshqa viloyatlarda ham ilgari surilmoqda.

Iqtidorli yoshlarga sharoit yaratish uchun viloyatlarda axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan Al-Xorazmiy, muhandislik bo'yicha Mirzo Ulug'bek, tabiiy fanlar yo'nalishida Ibn Sino maktablari filiallari tashkil etiladi. Ular hududlardagi texnika oliy o'quv yurtlariga birlashtiriladi. Yaxshi natijaga erishgan bitiruvchilar ularning 2-kursiga qabul qilinadi.

Bolalar kontentini rivojlantirish markazi, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tomonidan haftalik mavzularidan kelib chiqib, qiziqarli videoroliklar yaratiladi. Ular "Milliy tarbiya" platformasiga joylashtirib boriladi.

Joylardagi 219 ta "Barkamol avlod" maktabi, "Yoshlik" sport jamiyati, O'quvchi yoshlar markazi va O'zbekiston bolalar tashkiloti negizida respublika, hudud va tumanlarda "Kelajak" markazlari tashkil etiladi. Mazkur markazlar maktablar bilan uzviylikni jonlantirib, o'quvchilarni muhandislik, ilmfan, madaniyat, san'at, kitobxonlik, sport va ekologiya yo'nalishlari bo'yicha to'garaklarga jalb qiladi. Buning uchun har bir o'rta maktabda maslahatchi lavozimi joriy etiladi. Ular o'quvchilarning qobiliyati va qiziqishiga qarab, til, kasb, muhandislik, ijod, san'at va sport to'garaklarini tashkil qiladi. Ushbu to'garaklar va olimpiadalarida erishgan natijalari bo'yicha yoshlarning "raqamli portfolio"si shakllantirilib, elektron shahodatnomada ko'rsatiladi.

Yurtimizda 450 ming o'quvchini qabul qila oladigan 598 ta texnikum bor. Lekin ularda yoshlarning qiziqishi, kasb topish ko'rsatkichi yuqori emas. Shuning uchun Prezident va ixtisoslashgan maktablar tajribasi asosida barcha texnikumlarga xalqaro standart bo'yicha zamonaviy kasbga o'qitish muhitini olib kirish zarurligi ta'kidlandi. Bu ishlarni yagona siyosat asosida olib borish uchun Kasbiy ta'lim agentligi tashkil qilinadi.

Endi investorlar buyurtmasi bilan texnikumlarda kadrlar maqsadli tayyorlanadi. Texnikum bilan dual ta'limni yo'lga qo'ygan korxonalarga imtiyozli kredit ajratiladi. Yig'ilishda rivojlangan davlatlar tajribasi asosida kasbga o'rgatuvchi ustaxonalar tashkil qilish, xorijiy tillarni o'qitishni kengaytirish masalalariga ham ko'talib o'tildi.

Videoselektorda mutasaddilar va pedagoglar bilan muloqot bo'ldi. Albatta, qisqa vaqtda barchani tinglash va javob qaytarish imkoni yo'q. Shu bois, tahriyatimiz o'z munosabatini bildirmoqchi bo'lgan o'qituvchilarga minbar beradi. Toshkent viloyatining tog' oldi hududida joylashgan Angren shahridagi 27-umumiy o'rta ta'lim maktabining geografiya fani o'qituvchisi Dilafruz Razzoqova ana shunday ta'lim vakillaridan. Pedagogning taassurotlari bilan tanishamiz:

– Prezidentimiz videoselektor avvalida aynan o'qituvchilarga e'tibor qaratgani ko'nglimizni tog'day ko'tardi: "Iqtisodiyot rivojlanishi, yurtimiz va farzandlarimiz kelajagi faqat va faqat ta'lim va muallimga bog'liq. Sizlar bilan ish boshlagan birinchi kundan aytaman: ta'lim, ta'lim, ta'lim, muallim, muallim, muallim".

Yaqin-yaqingacha xato va muammolarning bor yuki o'qituvchining yelkasiga tushardi. Ayrim hollarda mahalliy rahbarlar, hatto maktab direktorlari ham yuzaga kelgan muammolarga parvo qilmay, yechimini oddiy muallimga qoldirdi. Bu adolatdan edimi? Albatta, yo'q.

Davlatimiz rahbari bu borada ham qat'iy fikrni ilgari surdi: "Har bir tuman, viloyat hokimi, biz farzandlarimizni ishonib topshirgan bog'cha, maktab, texnikum, oliyog' rahbarlari bir haqiqatni aniq bilishi zarur. Odamlarimiz yaxshi yashashi uchun iqtisodiyotimiz kuchli bo'lishi kerak! Buning uchun yangi tovar, yangi xizmat, yangi texnologiya kerak! Sifatli ta'lim tizimi orqaligina bularga erisha olamiz! Boshqa yo'limiz yo'q! Shu haqiqatni anglab, har kun o'zini qiynab ishlagan rahbarning tumanida, bog'chasi, maktabi, texnikumi, oliyog'hida albatta o'zgarish va natija bo'ladi!"

Videoselektorda ta'limning barcha bosqichlari – bog'chadan tortib oliyog'hoga qadar bo'lgan zanjir qamrab olindi. Ta'limning natijasi qayerda ko'rinadi? Amaliyotda – ish jarayonida. Yig'ilishda yoshlarni ish bilan ta'minlashning yangi mexanizmiga ham keng o'rin ajratildi.

O'tgan yildan boshlab 1-sinfda informatika dars soatlari yo'lga qo'yildi. Keyingi o'quv yilidan yuqori sinflarga sun'iy intellekt bo'yicha darslar kiritilishi va buning uchun 2 mingta sinf xonasi kompyuter va interaktiv doskalar bilan ta'minlanishi aytiladi. Yoshi kattalar "bizning davrimizda" deb gapiradi. Lekin 7-8 yil oldin ham maktablarda kompyuter yetarli emas yoki borlari ham ta'mirlanib, ma'nau eskirgan edi. Bu texnikalar faqat ko'rgazmali qurolga yarar edi. Ammo bog'cha yoshidayoq telefon, internet bilan tanishayotgan bolani quruq savlat qoniqtirmaydi. Ular albatta zamonaviy texnikani dars jarayonida bevosita foydalanishi kerak.

Yig'ilishda yuksak iqtidorli o'quvchilar uchun ixtisoslashgan maktablar sonining ortayotgani, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Ibn Sino maktablari filiallari ochilishi haqida ham gapirildi. Bu, albatta, yoshlarning o'z yo'nalishida chuqur bilim olishi uchun katta imkoniyat. Shular qatorida "Kelajak" markazlarini tashkil etish tashabbusi ham e'tiborga molik. Chunki u yerda ixtisoslashgan maktablarga kira olmagan o'quvchilar bilan chuqurroq ishlash mumkin bo'ladi. Chunki jamiyat taraqqiyoqi faqat iqtidorli guruhga emas, balki butun avlodning katta hayotga tayyorgarligiga bog'liq.

Yig'ilishdan keyin ikki xil tuyg'u paydo bo'ldi: birinchisi – quvonch va faxr, ikkinchisi – mas'uliyat. Chunki davlatimiz ta'lim sohasiga katta mablag', imkoniyat va e'tibor qaratmoqda. Endi biz bu imkoniyatlarni samarasiz sarflash, qog'ozda hisobot berish yoki mas'uliyatsizlikka yo'l qo'yishga haqqimiz yo'q.

"E'tibor bering, bugun o'z ustida ishlagan 60 mingdan ortiq o'qituvchi 10–12 million so'm maosh o'laypti. Bu qachon bo'lgan? Men xalqimizga vaqti kelib o'qituvchilarning maoshini ming dollarga yetkazamiz, degan gaplarim, mana, uch yil ichida haqiqatga aylandi", dedi Davlatimiz rahbari.

Nutqdagi "o'z ustida ishlagan" iborasida hikmat katta. Chunki haqiqatda mehnat qilgan hamkasblarimiz munosib rag'batini o'laypti. Hamma gap odamning o'zida qolyapti. Hazrat Navoiyning bir hikmatli bayti barcha ta'lim sohasi vakillariga qaratilganday:

**O'z vujudingga tafakkur aylagil,
Har ne istarsen, o'zungdin istagil.**

Jamoliddin BADALOV

Boshlanishi 1-sahifada.

Milliy terma jamoamiz yutuqlari shunchaki katta natija emas, bu – ruhiy uyg'onish, milliy o'zlikni anglash demakdir. Bu g'alaba bizni yanada jipslashtirdi, ruhlantirdi, ilhomlantirdi.

Bugun O'zbekistonda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Xalqimizning o'y-fikri, dunyoqarashi o'sib, turmush tarzi, hayoti chin ma'noda farovonlashdi. Bu isbot talab qilmaydigan haqiqat. Lekin yurt-doshlarimiz xayolining bir chetida nimadir yetishmayotgandek bo'lib turardi. Taniqli san'atkor Ergash Karimov mashhur film-da: "O'ynolmas ekansan, ko'ptokni bizga tashlamaysanmi, burda-burda qilib tashlamaymizmi", deganidek, qalbimizda kichkina bir tushkunlik bor edi. Sababi, uzoq vaqt futbolni rivojlantirishga to'siq bo'layotgan kamchiliklar tan olinmadi, ularga qarshi qat'iy choralar ko'rilmasi. Oqibatda, iqtidorli sportchilarimiz dunyo bo'ylab tarqab ketdi yoki yangi iste'dodlar katta maydonga yeta olmay, boshqa sohalarga o'zini urdi.

Yangi O'zbekiston bugun ko'pchilikning nigohida. Mamlakatimiz haqida ko'p yozishmoqda va bu yerga tez-tez tashrif buyurishyapti. Keluvchilar esa siyosat, iqtisodiyot, xalqaro munosabatlarda yuz berayotgan o'zgarishlarga guvoh bo'lishni istaydi. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro hamjamiyatning mamlakatga chinakam ishonchi sport sohasida erishayotgan yutuqlarida ham ko'rinadi.

Futbol nafaqat sport o'yini, balki butun boshli madaniyat, milliy iftixor manbasi va mamlakatni jahonga tanitishning eng samarali vositalaridan biridir. Hozirgi globallashuv davrida futbol maydonida erishilgan muvaffaqiyatlar mamlakatning ijobiy qiyofasini shakllantirish, iqtisodiy rivojlanishiga turki berish va xalqaro maydondagi mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Futbol jamoasining xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlari mamlakat nomini dunyoga taratadi. Jahon chempionati, Osiyo, Afrika, Yevropa chempionati kabi yirik turnirlar millionlab muxlislar e'tiborini jalb qiladi. Bunday musobaqalarda g'olib chiqqan yoki muvaffaqiyatli ishtirok etgan jamoalar haqida ma'lumotlar butun dunyoga tarqaladi. Natijada, bu davlatga qiziqish ortadi, turizm rivojlanadi va investitsiyalar yo'naltiriladi. Misol uchun, Islantiya terma jamoasining 2016-yilgi Yevropa chempionatidagi muvaffaqiyati butun dunyoga orol-davlatning borligini yana bir bor eslatib qo'ydi. Xorvatiya terma jamoasining 2018-yilgi jahon chempionatida finalga qadar yetib borishi sayyohlik salohiyatini oshirdi va iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Futbol iqtisodiyotga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Yirik futbol musobaqalarini o'tkazish uchun stadionlar quriladi, infratuzilma rivojlanadi, mehmonxona va restoranlar biznesi gullab-yashnaydi. Bu esa yangi ish o'rinlari yaratilishi va mamlakat byudjeti boyishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, futbol klublari homiylar bilan shartnomalar tuzib, reklamadan katta foyda ko'radi. Futbolchilarning transferlari ham mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli daromad keltiradi.

Shuning uchun ham, futbolga investitsiya kiritish va uni rivojlantirish mamlakatning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Yaqindan beri futbol maydonlarida terma jamoalarimiz ishtirokida ro'y berayotgan katta voqealar kuchli hayajonga sabab va xalqaro OAVda muhokamalarga mavzu bo'lmoqda, asosiysi, mamlakatimiz ichkarisidan ulkan faxr-iftixor tuyg'ularini uyg'otmoqda. O'zbekiston milliy terma jamoasi ilk bor saralash o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, tarixda jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Aynan O'zbekiston futbolchilari Markaziy Osiyodan birinchi bo'lib va yagona jamoa sifatida mundialda o'ynaydigan bo'ldi. Millionlab ishqibozlar uchun bu daqiqalar uzoq kutilgandi. Ilgari o'n yilliklar davomida O'zbekiston saralash turnirlarida ko'p marta qatnashgan, ammo har safar nimadir yetishmasdi.

G'alabalar tasodifiy bo'lmaydi. Ularga mustahkam zamin tayyorlanishi kerak. Bu tag zamin, poydevor bir-ikki yilgina avval qo'yilgan emas: futbol sohasi bosqichma-bosqich, davlat ko'magi bilan va uzoq muddatli rejalashtirish orqali rivojlanib bordi. Prezidentimizning futbol infratuzilmasi, akademiyani qo'llab-quvvatlash, yosh iste'dodlar uchun sharoit yaratish bo'yicha qabul qilgan qarorlari o'zining hal etuvchi rolini ko'rsatdi.



Mamlakatimizning futbol maydonidagi yutug'i umumiy manzaraning yorqin bir qismidir. Chunki sport xuddi davlat boshqaruvi va xalqaro munosabatlar singari, strategik tafakkur, chidamlilik va bir necha yil oldindan fikrlash qobiliyatini talab qiladi.

Qaysiki mamlakat dunyo sahnida muvaffaqiyatga erishar ekan, demak, o'sha yerda iste'dod, mehnat va g'alabaga intilish qo'llab-quvvatlanadi, barcha sohaning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratilgan bo'ladi. Uzoqqa bormaylik: sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, O'zbekistonni chinakam sport mamlakatiga aylantirish maqsadida istiqbolli o'g'il-qizlarimizga atab Toshkentda ulkan Olimpiya shaharchasi barpo etildi. 18-avgust kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yuqori Chirchiq tumanida barpo etilgan Milliy futbol markazini borib ko'rди. Davlatimiz rahbari ikki yil oldin bu yerga tashrif buyurib, mavjud stadionga tutash hududda zamonaviy majmua bunyod etish zarurligini aytgan edi. Ko'p o'tmay, Prezidentimizning 2023-yil 3-noyabrda "Futbol ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori imzolandi.

Mustaqillik bayrami arafasida foydalanishga topshirilgan Milliy futbol markazida bir vaqtning o'zida 6 ta terma jamoamizning o'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tkazish imkoniyati bor. Buning uchun stadionlar, o'quv binolari, sport zallari, mehmonxona barpo etilgan. Pliyaj futbolni maydoni, futzal manevi, basseyn va reabilitatsiya bo'limi qo'shimcha qulayliklar yaratgan. Majmua professional futbolchi va mutaxassislarni tayyorlash uchun to'rtta tuzilma tashkil etildi. Bular – Futbol mutaxassislarini tayyorlash va ilmiy-tadqiqot markazi, Futbol terma jamoalari tayyorgarlik markazi, Respublika futbol akademiyasi, Sport tibbiyoti va reabilitatsiya markazidir.

Futbol tibbiyoti va reabilitatsiyasi bo'limiga xorijiy uskunalar olib kelingan, eng ilg'or uslublar o'zlashtirilgan. Bu yerdagi sharoitlar futbolchilarga qisqa vaqt ichida jismonan tiklanish imkoniyatini beradi. Futbol akademiyasida yosh iste'dodlar saralanib, tarbiyalanadi. Buni xalqaro darajada tashkil etish uchun markazga Argentina, Vengriya va Xorvatiya kabi davlatlardan mutaxassislar jalb qilingan. Ular malakali murabbiy, hakam, tahlilchi, seleksioner va futbol menejerlarini tayyorlashda ishtirok etmoqda. Majmua "VAR markazi" ham tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi qarori bilan 2018–2022-yillarda futbolni yanada rivojlantirish dasturi qabul qilingan edi. Iste'dodli yoshlarni tanlash va professional tayyorlash hamda milliy terma jamoalar zaxirasini yaratish maqsadida 14 ta hududda bolalar va o'smirlar futbol akademiyalari tashkil etildi. Mashg'ulot va musobaqalarda sifat oshdi. Murabbiylar, hakamlar va boshqa mutaxassislar e'tibor kuchaydi. Zamonaviy sport arxitekturasining noyob durdonasi bo'lgan ushbu majmualar minglab bo'lg'usi chempionlarimiz uchun yuksak parvoz maydoniga aylanishga shubha yo'q.

Prezidentimiz 2019-yil 4-dekabrda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Unda klublar faoliyatini rivojlantirish, xalqaro darajadagi mutaxassislar tayyorlash, terma jamoalarning o'quv-mashg'ulot jarayonini

zamonaviy tashkil etish, mamlakatimizda nufuzli musobaqalar o'tkazish maqsadlari belgilangan edi. 2023-yil 8-aprelda qabul qilingan ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishga oid Prezident qarori ham bu borada g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Yuksak e'tibor va tizim tufayli natijalar ham birin-ketin bo'y ko'rsata boshladi. 2018-yilda U-23 jamoamiz Xitoyda, 2023-yilda U-20 futbolchilarimiz O'zbekistonda o'tgan musobaqalarda Osiyo chempionligini qo'lga kiritdi. Yurtimizda FIFA va OFK dasturidagi turnirlarni o'tkazish yo'lga qo'yildi. Saudiya Arabistonida bo'lib o'tgan Osiyo kubogida 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlar terma jamoamiz birinchi o'rinni egallab, jahon chempionatiga yo'llanma olganda, Prezidentimiz ushbu qahramon futbolchilarimiz bilan uchrashib, ularga mehri e'tiborini izhor qilgani ko'ksimizni iftixorga to'ldirgandi:

"Biz hamma sohada dunyoda munosib o'rinni egallashga intilyapmiz. Sportchilarimiz buni tezroq yetkaza oladi. Sizlar irodali g'alabangiz bilan, xalqimiz mehnat qilsa, harakat qilsa, hamma narsaga qodir ekanini yana bir bor isbotladingiz. Butun dunyo sizning timsolingizda azm-u shijoatli, g'ururi baland, hech qachon intilishdan qaytmaydigan yangi O'zbekiston avlodini ko'rди. Endi futbolni hozirgidan ham 2-3 karra ko'proq qo'llab-quvvatlaymiz. Sizdek yoshlar xalqimizning ishonchi, Prezidentning quvonchisizlar".

Davlat darajasida qaratilayotgan e'tiborga yarasha xalqaro sport arenasida ham O'zbekistonga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Xususan, FIFA prezidenti Janni Infantining 2023-yil may oyida va yaqinda "CAFA Nations Cup 2025" musobaqasining final uchrashuvini stadiondan kuzatish uchun O'zbekistonga tashriflari mamlakatimizda futbolni yanada rivojlantirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Janni Infantining O'zbekistonga tashrifidan ko'zlangan asosiy maqsad – mamlakatda futbolni yanada rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash, yoshlar futbolini qo'llab-quvvatlash va milliy terma jamoaning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga qaratilgan loyihalarni muhokama qilishdan iborat edi. FIFA prezidenti Milliy futbol markazining imkoniyatlari, mashg'ulot sharoitlari va yosh futbolchilar uchun yaratilgan qulayliklar bilan yaqindan tanishdi.

Bevosita FIFAning texnik ko'magida yurtimizda zamonaviy Milliy futbol markazi, shu jumladan, innovation yechimlarni joriy etgan holda raqamli futbol bo'yicha situatsion markaz tashkil etildi. O'tgan yili mamlakatimizda futzal bo'yicha jahon chempionati muvaffaqiyatli o'tkazildi. Toshkent shahrida FIFAning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun mintaqaviy ofisini ochish yuzasidan kelishuvga erishilgan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zbek futbolini rivojlantirish va xalqaro maydonda qo'llab-quvvatlashga qo'shgan shaxsiy hissasi uchun FIFA rahbari Janni Infantinoga davlatimizning yuksak mukofoti – "Do'stlik" ordenini topshirgani ham ana shu ko'makning e'tirofi bo'ldi. Ushbu tashrif O'zbekiston futbolini yanada rivojlantirish eshigini ochadi, FIFA bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish va mamlakatimizda futbolni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Abduvali SOYIBNAZAROV



SAODAT VA KULFAT

Boshlanishi 1-sahifada.

Muhokamaga o'rin yo'qligi uchun noiløj Saodatxon otamakoniga bir yashar Nodira bilan jo'nab ketdi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay Zokirjon vafot etdi, Saodat bu yo'qotishdan uzoq vaqt o'ziga kelolmay yurdi. Keyin erining orzusini amalga oshirish – oliy ma'lumot olish uchun 1928-yilda Samarqand pedagogika institutining tashkilotchi fakultetida o'qidi. Bu orada uni Samarqand eski shahar komsomol komitetining sekretari qilib saylashdi. Oradan bir yil o'tgach, O'zbekiston komsomol komitetining Maorif ministrligidagi vakili etib tayinlandi. Bu joyda bilimga chanqoq yoshlar turli mamlakatlar va markaziy shaharlarga ilm olish uchun yo'llanardi. O'sha vaqtda Fayzulla Xo'jayevning shaxsiy tashabbusi bilan 63 nafar yig'it-qiz Germaniyada ta'lim olib, turli kasblarni o'rganib qaytgandi.

1930-yilda Saodat Shamsiyeva “Правда” nomidagi Butunittifoq jurnalistika institutiga yo'llanma oladi. Avvaliga o'qish dasturi murakabligidan hayiqadi. Bir o'yi yurtga qaytish edi. Lekin rektor Essin hujjatlarni qaytarib olishga ruxsat bermaydi. “Boshida qiyin bo'lsa ham, keyin bemaol o'zlashtira olasiz. Hech qo'rqmang!” deya qolishga ko'ndiradi. Ochlik va qimmatchilik hukm surgan o'sha zamonada besh yil musofirlikda kun kechirish, o'qish og'ir mashaqqat bilan kechadi. Issiq kiyim u yoqda tursin, 100 gramm non falon pul bo'lib ketgan mahalda u bor-yo'g'i 30 so'm stipendiya olardi. Shu bois, Moskvaga borganida o'zbekistonlik talabalar holidan xabar olgan Yo'ldosh Oxunboboyev respublika hisobidan qo'shimcha haq to'lash haqida qaror qiladi...

1933-yilda institut bitiruvchilari Markaziy Komitetning siyosiy bo'limi ixtiyoriga yuboriladi. Saodat Shamsiyevaga u yerdan Andijon rayon MTSi qoshidagi “Mo'l hosil uchun” gazetasi redaktorligiga yo'llanma beriladi.

Keyinchalik Saodat Shamsiyeva “Saodat” jurnaliga bergan intervyusida “kolxozlashtirish” siyosati haqida fikr bildirib, shunday deydi: “O'rtahol dehqonlarni quloq qilish xalqqa hech foyda keltirmasligini, aksincha, odamlarning qaysidir ma'noda yosh sovetlar hokimiyatidan ko'ngli so'vishiga sabab bo'lishini biz yaxshi bilardik. Lekin yuqoridan kelayotgan buyruqni ham bajarmay ilojimiz yo'q edi... Hatto, 34–36-yillar, odamlarning qorni nonga to'yamaydigan zamonlar bo'lishiga qaramasdan, sholipoyalarni buzib paxta ektirilishiga bir oqil odam chiqib e'tiroz bildira olmagan vaqtlar ham bo'lgan...”

1936-yilning bahorida sholipoyalarda suv kechib, uzoq vaqt bezgak bilan og'rib



1925-yil. Toshkent xotin-qizlar bilim yurtining talabalari: Xosiyat Komilova, Saodat Shamsiyeva, Husni Otaboyeva.

yotganini hisobga olib, Saodatning Toshkentda ishlashiga ruxsat berishadi. U “Qizil O'zbekiston” gazetasining madaniyat bo'limida ishlay boshlaydi. Bir kuni redaksiyaga O'zekiston Kompartiyasining birinchi sekretari Akmal Ikromov keladi va Saodatni ko'rib suyunib ketadi. Uni Markaziy Komitetning bosmaxona ishlari bo'limiga ishga taklif qiladi.

O'shanda “Saodat” jurnali “Yangi yo'l” nomi bilan chiqardi. Saodat bir vaqtning o'zida ham bo'limda ishlab, ham jurnalga muharrirlik qila boshlaydi. O'sha paytda jurnal nomini o'zgartirish masalasi ko'tarilib, A'zam Ayupning taklifi bilan “Yorqin turmush” deb nomlanadi. Aslida, shu jarayonda jurnalga “Saodat” nomini berish Fayzulla Xo'jayev tomonidan ilgari surilgan. Lekin Akmal Ikromov masalaga ehtiyotkorlik bilan yondashgan edi: “Redaktori Saodat bo'lsa, jurnal nomini ham “Saodat” deb atasak, odamlar noto'g'ri tushunishi mumkin”, deya rozi bo'lmaydi...

Saodat Shamsiyeva ikki davlat arbobi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi:

– Fayzulla Xo'jayev va Akmal Ikromov o'zbek xalqining chinakam farzandlari edi. Ular har bir ishni bamaslahat, hamjihatlikda

hal qilishni ma'qul ko'rardi. Har ikkalasi ham yoshlarning siyosiy yetuk, bilimdon bo'lishiga juda katta e'tibor berardi. “Hozirdanoq rahbarlik ishini o'rganganlarning ma'qul. Bizdan keyin respublikamiz taqdiri sizlarning qo'lingizda”, der edi Akmal aka. Fayzulla Xo'jayev bilan Moskvadagi “Rabfak”ni bitirib kelgan o'zbekistonlik yoshlar haqida maqola tayyorlash tashvishida yurgan kezlarimda tanishdim. Bitiruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni respublika arxividan topolmadim. Shunda Fitratning singlisi Mahbuba Rahim qizi Fayzulla Xo'jayevga ko'mak so'rab murojaat etishimni maslahat berdi. Shuni alohida ta'kidlashim kerakki, Fayzulla Xo'jayev bilan uchrashganimda, uning qanchalar ziyoli, tarbiyali va bilimdon odam ekaniga amin bo'ldim. Fayzulla Xo'jayevning biror so'zida, xatti-harakatida zo'rakilik ko'rinmas, aksincha, uning o'z e'tiqodiga, och-yalang'och xalqning qullikdan batamom ozod bo'lishiga ishonch butun vujudini qamrab olgan edi. Arxiv materiallarini ko'rib chiqish davomida uning “Rabfak”da o'qiyotganlarga (Moskvada kiyimlarining yupunligi va nonning qimmatligini hisobga olib) Buxoro hukumati tomonidan yana qo'shimcha pul ajratilishini ta'kidlab yozgan xatini o'qib qoldim. Ming afsuski, repressiyaning sovuq shamoli eng avvalo ana shunday insonlarni oramizdan olib ketdi...

Qatag'on mashinasining qonli g'ildiraklari Saodat Shamsiyeva hayotida ham ayanchli izlar qoldirgan. O'zbekiston KP(b) Markaziy Komitetining 1937-yil oxirgi Plenumida yoshlar masalasi ko'rib chiqildi. Ko'plar qatori uni ham ayg'oqchilikda ayblashdi. Emishki, uning akasi Madamin chet el ayg'oqchisi bo'lib, Saodat unga ma'lumotlar yetkazib turarmish....

Shundan keyin Saodat do'stlarining tavsiyasi bilan yashirincha kun kechirishga majbur bo'ladi. Dastlab qizi Nodira va o'g'li Bahodirjonni olib, singlisi bilan Orjonikedze rayonidagi bir qishloqqa borib, xaroba uyda yashay boshlaydi. O'sha yili qish qattiq kelishiga qaramay, bir buxanka non olish uchun Saodat va singlisi yarim beligacha loy kechib dalaga mahalliy o'g'it chiqarardi. Shundan keyin Saodat ikkinchi marta bezgakka chalilib yotib qoladi. Yana shaharga hech kim bilmas tarzda ko'chib o'tishga majbur bo'lishadi. Shundan so'ng, sog'ligi biroz yaxshilangach, “Tashkentprom”da shisha idishlarga siyoh quyuvchi, non zavodida yuk tashuvchi bo'lib ishlaydi.

1945-yilda arab tilini yaxshi bilgani uchun ishga olishar degan maqsadda Sharqshunoslik institutiga ish so'rab boradi. Afsuski, yana omadi kelmaydi. U yerda odam boshiga 300 grammdan non berishardi, tabiiyki, bu bilan

ikki bolasi, singlisi va o'zini to'ydirmasdi. Shuning uchun boshqa ish qidirishga majbur bo'ladi. O'zTAGga ish so'rab boradi, u yerda unga bir xat berib maqola tayyorlab kelishini aytishadi. Maqola ma'qul kelib, unga rahmatnoma e'lon qilinib, ishga olishadi. U shu yillarda O'zbekiston radiosida, Parkent rayon gazetasida, Angren ko'mir koni gazetalarida ham ishlaydi.

Saodatga bir joyda uzoq ishlashiga amnistiya chiqqan bo'lsa-da, haliyam o'zini oqlab olmagani xalaqit berardi. Shuning uchun 1955-yilda u Moskvaga boradi. Repressiya qilinganlar ro'yxatida uning familiyasi ham bor ekan. O'shanda ko'zoynakli sekretar unga uzoq tikilib qolgan edi. “Siz partiyadan o'chirilib, ishdan olingan, 1937-yilda otuvga hukm qilingan ekansiz. Qanday tirik qoldingiz?” deydi sovuq ohangda. Shu lahzada Saodatning oyoq-qo'lidan darmon ketib, o'tirib qoladi... Hartugul bu vaqtda Stalin siyosati kuchsizlangan, turg'unlik shamollari esa boshlagan, qatag'on qurbonlari nari-beri oqlangan 1956-yil kirib kelgandi. Shu yili Saodat Shamsiyeva O'zbekiston xotin-qizlari jurnali “Saodat” tahririyatida muharrir o'rinbosari lavozimida ish boshlaydi. Shu o'rinda qahramonimizning nolalariga quloq tutamiz.

“1956-yili Toshkentga kelib, O'zbekiston xotin-qizlari jurnalida 3-4 yil ishlab pensiyaga chiqdim. Sog'ligim zaif bo'lsa ham endi jamoat ishlarda qatnashib yurdim. “Respublikada xizmat ko'rsatgan jurnalist” degan unvonim bor edi... 17 yillik repressiyadan so'ng hayotimdan biron durustroq narsa qoldirolmadim. Yozish uchun yaxshi kayfiyat, ilhom, toza havo, tengdosh qalamkashlar bo'lishi kerak ekan. Yoshligimning 17 yili yig'lab o'tdi. “Xalq dushmani” degan so'z yurak-bag'rimdan o'tardi, yuzim qaro edi”.

Nafaqaga chiqdi-yu, qalam tebratishni davom ettirdi. Kitoblar tarjima qilish, radioeshit-tirishlar, teleko'rsatuvlar tayyorlash, respublika gazetalariga maqolalar yozish bilan mashg'ul bo'ldi.

Saodat Shamsiyeva 1999-yili vafot etdi. Saodat ayaning umr yo'llari ko'z oldimizda iroda va sabotning yorqin namunasi kabi bo'y rostaydi. Bu kabi achchiq qismat egalarining jabrdiyda hayoti bilan tanishganda bugungi ozod kunlarimiz, yurtimizda ayollarga bo'layotgan yuksak e'tibor uchun beixtiyor shukronalar aytasan kishi.

Aziza AHROROVA,
Qatag'on qurbonlari xotirasi
davlat muzeyi
ekspozitsiya bo'limi boshlig'i

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi.
Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Hoji Murodov – 1892-yili Buxoro rayonidagi Arabxona qishlog'ida tug'ilgan. Buxoro shahri, Frunze ko'chasi, 66-uyda yashagan. Buxoro rayon ijroiya komiteti raisi o'rinbosari, “Milliy istiqlol” tashkilotining faol a'zosi bo'lgan.

U qishloq aholisini qurolli otryadlarga yollashda, Bozorov, Muhammedov, Rustamovlar bilan bir safda turib sovet hokimiyatiga qarshi kurash olib borishda, qo'zg'olon sho'balari tuzishda, amir amaldorlaridan, militsiya xodimlaridan qurol sotib olishda ayblangan.

1938-yil 14-oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasida 36 mahbus ustidan otuv hukmi chiqarilgan. Otilganlar ro'yxatidagi 6-shaxs Hoji Murodov bo'lgan. Hukm kech soat 12:13 da ijro etilgan.

Komiljon Tolipov – 1900-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. 42-o'zbek otlig polki komandiri yordamchisi sifatida xizmat qilgan, unvoni – kapitan.

1918–1938-yillarda Buvayda rayonida militsioner, 3-Turkiston polkida oddiy askar, Qo'qon shahrida katta militsioner sifatida xizmat qilgan. Shuningdek, Toshkent shahridagi milliy harbiy maktabni hamda Novocherkassk shahridagi komandirlik tarkibini takomillashtirish kursini tamomlagan.

1938-yil 25-apreldagi ayblov xulosasida 19-O'zbekiston tog' otlig diviziyasi qismida polk kapitani vazifasini bajarayotganda qurolli kurash yo'li bilan O'zbekistonni Sovet Ittifoqidan ajratib olish uchun uringan qayd etilgan.

SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining 1938-yil 10-oktyabrdagi sayyor yig'ilishida otuvga hukm qilingan.

Burxon Hamraqulov – Qo'qon shahrida tug'ilgan. Xizmat joyi – 19-diviziya partiya komiteti mas'ul kotibi. 1919-yildan ishchi-dehqon qizil armiya safida xizmat qilgan, milliy-harbiy maktabda o'qigan.

1930-yili Fayzulla Xo'jayev hamda boshqa milliy ozodlik harakati tashkiloti a'zolari bilan bog'langanlikda, 19-tog' kavaleriya diviziyasida inqilobga qarshi faoliyat olib borganlikda ayblangan. O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 66-67-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining 1938-yil 10-oktyabrdagi sayyor yig'ilishida o'limga hukm qilingan. 1957-yil 19-iyulda reabilitatsiya qilingan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).

JADIDSHUNOSLIK

“Kotib har muddaoni yozmoqchi bo'lsa...”

Ma'rifatparvar jadid bobolarimiz yosh avlod ta'limi hamda ilm-fanning muhim sohalarini o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratganlarini tarixdan yaxshi bilamiz. Yangi usul maktablari ochilar ekan, albatta, bu dargohlar uchun zamonaviy darslik hamda o'quv qo'llanmalari ham yaratish lozim edi. Jadidlar bu ishning ham uddasidan chiqdi. Birgina Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zi “Risolayi asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”), “Risolayi jug'rofiyayi umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”), “Muntaxabi jug'rofiyayi umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”), “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar xati”), “Tarixi islom” (“Islom tarixi”), “Amaliyoti islom”, “Rusiyaning qisqacha geografiyasi” kabi ko'plab darslik va qo'llanmalarni yaratdi.

Shunday asarlardan biri, 1908 va 1914-yillarda Samarqandda ikki marta nashr qilingan “Kitobat ul-atfol” qo'llanmasi jadid maktablarida til va hujjat qoidalarini o'rgatish maqsadida yaratilgan. Ta'kidlash joizki, bu masalaga Behbudiydan boshqa jadidlar ham e'tibor qaratgan. Jumladan, Mirzo Rahimbobo “Tamsil



ul-insho”, Mulla Odilxoji Mahdum “Majmuati insho” qo'llanmalarini yozishgan. Ularning qo'lyozmalari hozirda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

“Kitobat ul-atfol” asarining so'z-boshi qismida muallif shunday yozadi: “Turkistonning qadim maktablarindagi bolalar 4-5 yil o'tkargandan so'ng xat mashq qilib, ba'dinda insho yozadurlar. O'shal insholar nihoyat mushkul suratda arabiy, forsiy va turkiy yozilgandurki, (maktabdorlar) shogirdlari nari tursin, ba'zi maktabdorlar zo'rg'a bilur.

Mushkul (satrlar) iboratlik uzun insholar, albatta bola zehnni ochmay, balki fikrini yo'q bo'lishiga sabab bo'lar”.

Shu bois, Mahmudxo'ja Behbudiy jadid maktablarida xat yozish, hujjatshunoslik, ish yuritish tizimini o'quvchilarga sodda, mukammal tarzda o'rgatishni maqsad qiladi. Chunki jadid maktabini tamomlagan o'quvchi barcha zamonaviy fanlarni egallash bilan bir qatorda, Turkiston o'lkasida tijorat ishlari bilan shug'ullanishi yoki biror davlat idorasida mirzo sifatida ishlashiga imkoniyati bo'lsa, xat va idora hujjatlarini tushunishi lozim edi.

Ma'lumki, azaldan maktublar xususiy va umumiy xatlarga ajratilgan. Muallif ta'rifiga ko'ra, xususiy xatlar ikki kishi orasida yoziladigan munosabat xatlaridir. Manbada xususiy xatlarning odobi, “xat yozmoq shartlari” alohida ko'rsatib beriladi. Ular jami 18 ta shartdan iborat bo'lib, so'zlarning ma'nosini bilmasdan ishlatamaslik, inson nuqsini va sha'niga tegishli ma'lumotlardan foydalanmaslik, xato va haqorat-larsiz, hissiyotga berilmasdan yozish uqtiliradi. Shuningdek, kitobda ariza, ma'lumotnoma, tasdiqнома, shahodatnoma, tilxat kabi hujjat namunalarining yozilish tartibi va qoidalari o'rgatiladi. Xat oxirida imzo va sanani to'g'ri qo'yish lozimligi ta'kidlanib, hijriy va milodiy yillar, ularning oylari nomlari arab, fors, rus va o'zbek tillarida jadval tarzida beriladi.

Yozish qoidalari orasida: “Kotib har muddaoni yozmoqchi bo'lganda, o'shal muddaoni o'zi yaxshi tushunub, so'ngra yozsa kerak” yoki “O'zi bilmaydurgon lug'atni mumkin qadarincha yozmasun”, degan muhim fikrlar bor.

Qo'llanmaning “Namuna xatlar” qismida xat yozuvchining otasi, onasi, ustozi, aka-ukalari, do'sti, farzandiga bitilgan o'ttizdan ortiq xususiy xatlar, shuningdek,

yigirmaga yaqin rasmiy xat va hujjatlar namunalari keltirilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy ish yuritishda so'zning qudrati, muhimligiga alohida e'tibor qaratib, har bir so'zni o'z qoidasi, o'z imlosi bo'yicha yozish talab etilishini ko'rsatib o'tadi. Xat, u xoh fuqarolarga, xoh idoralarga bo'lsin, yetib borganida oluvchiga ta'isir o'tkazishini o'ylab, fahm va mulohaza bilan yozilmog'i maqsadga muvofiq, deyiladi.

“Kitob ul-atfol”da tinish belgilar ham o'ziga xos nomlar bilan berilgani e'tiborlidir. Jumladan, so'roq belgisi – alomati savol; undov – alomati nido, taajjub, xitob; tire – ikki so'zni farq qiladigan alomat; barobar – ikkisi bir pog'onada; vergul – ozgina turmoq uchun; ikki nuqta – bayon va tafsil uchun; ko'p nuqtalar – notamom so'zlar kabi atamalar bilan berilganini ko'ramiz.

O'zbek hujjatchilik tarixiga oid asarlar ichida alohida ajralib turadigan, matnlarda odob-axloq qoidalari yuqori darajada qo'llangan “Kitobat ul-atfol” asari jadid maktablarida darslik sifatida foydalanilgan. Kitob yaratilganiga bir asrdan oshgan bo'lsa-da, halihamon u o'z qadri-qiyamatini yo'qotgan emas.

Sherali QO'LDOSHEV,
tarix fanlari doktori



TANLOV YAKUNI

Hurmatli yurtdoshlar, xabaringiz bor, maktab o'quvchilarida "Dolzab 90 kun" doirasida ijodiy fikrlash va badiiy tasavvurini rivojlantirish, bu orqali yangi avlodga Vatanga bo'lgan mehr-u muhabbat va sadoqatni kuchaytirish, "O'zbekiston-2030" strategiyasi g'oyalari maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari o'rtasida keng targ'ib etish, milliy qadriyat va an'analar ruhini badiiy talqinda singdirish hamda jadid bobolarning ibratli faoliyatini tahlil va talqin qilish layoqatini shakllantirish maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda "Jadid bobomga maktub" tanlovini e'lon qilgan edik.

Bugun tanlov g'oliblari aniqlandi. Pochta orqali xat shaklida hamda tanlov uchun maxsus yaratilgan telegram-botga elektron ko'rinishda yuborilgan, shuningdek, to'g'ridan to'g'ri tahririyatga keltirib berilgan 40 mingga yaqin ijodiy ishlarni tekshirish va saralash o'z yakuniga yetdi.

Avvalroq, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan jalb etilgan 300 nafardan ortiq malakali pedagoglar hamda tahririyat xodimlari

har bir inshoning har bir satriga diqqat bilan yondashib, 100 ta inshoni saralab bergan edi. Malakali pedagog-olimler, adabiyot va jurnalistika sohasi vakillaridan tuzilgan hakamlar hay'ati qizg'in bahs-munozaralar, tahlil va tadqiqlardan so'ng, nihoyat, g'oliblarni aniqlab berdi:

1-O'RIN

Otaboyeva Nafisaxon Umrbek qizi – Xorazm viloyati Urganch shahridagi 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'quvchisi.

2-O'RIN

1. Narzullayeva Gulhayo Baxtiyor qizi – Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida joylashgan Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi o'quvchisi;

2. Safarova Shahlo Sodiqli qizi – Farg'ona viloyati Marg'ilon shahrida joylashgan Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi o'quvchisi.

3-O'RIN

1. Baxtiyarova Tumaris Allayarovna – Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi 36-sonli maktab o'quvchisi;

RAG'BATLANTIRUVCHI O'RINLAR

1. Meliqulov G'olibjon Akmal o'g'li – Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidagi 17-maktab o'quvchisi;

2. Fazliddinov Dilmurod Po'latjon o'g'li – Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 6-maktab o'quvchisi;

3. Urinbadalova Mashhura Ilhom qizi – Surxondaryo viloyati 56-maktab o'quvchisi;

4. Nosimova Jasmina Nasilayevna – Navoiy viloyati Konimex tumani 19-maktab o'quvchisi;

5. Bobobekova Ruxshona Otabek qizi – Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani 3-maktab o'quvchisi;

6. Rasuljonova Shukronabonu Abbos qizi – Namangan viloyati Pop tumani ixtisoslashtirilgan maktabi o'quvchisi;

7. Jalolova Shahinaxon Javharxon qizi – Toshkent viloyati Angren shahar 7-maktab o'quvchisi;

8. Qudratov Ibrohimjon Aktam o'g'li – Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani 32-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi;

9. Jamoldinova Dilziroxon Jasurbek qizi – Andijon viloyati Xo'jaobod tumani 3-maktab o'quvchisi;

10. Usmanova Gulnura Ubaydulayevna – Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri 38-maktab o'quvchisi.

G'oliblarni va tanlovda qatnashgan barcha iqtidorli o'quvchilarni chin yurakdan muborakbod etamiz! Tanlovni tashkil etishda, ijodiy ishlarni sidqidildan, adolatli baholashda faol ishtirok etgan aziz ustozlar va hakamlar hay'ati a'zolariga samimiy minnatdorlik bildiramiz.

Tanlov davomida muhtaram Prezidentimizning jadidlar hayotini o'rganish, ularning faoliyatini tahlil qilish, ma'rifatparvar ta'limotini hayotga tatbiq etish to'g'risidagi qator qarorlari bugungi yoshlarimizning dunyoqa-




rashi shakllanishida alohida o'rin tutayotgani, millat oydinlarining "Najot ilmdadir!" degan g'oyalari maktab ta'limida dasturulamalga aylanganiga guvoh bo'ldik. Yoshlarimizning erkin va keng fikrlashi, millatparvarligi bizni quvontirdi. O'tkir qalam, uchqur fikr sohibi bo'lgan minglab o'quvchi-yoshlarni o'zimiz uchun kashf etdik: ular, albatta, kelajakning yetuk ijodkorlari bo'lib yetishishlariga tilak-doshmiz!

Aziz mushtariylar, ushbu tanlov-tajriba jamoamizga katta kuch va ishonch bag'ishladi. Biz iste'dodlarni kashf etadigan, ijod ahlini birlashtiradigan, tafakkurni charxlaydigan bu kabi tanlovlarni davom ettirishni niyat qildik. Zero, maqsadimiz bitta: Tilda, fikrda, ishda birlik!

Hurmat bilan "Jadid" jamoasi.

Nafisaxon OTABOYEVA, Urganch shahridagi 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'quvchisi



Kimga maktub yuborsam ekan, deb bosh qotirmadim. Suratingizga tikilgancha ko'nglimdan kechganlarni qog'ozga ko'chiraman. Siz haqingizda yozishga chog'langan edim, so'z ipim "qalamning ignasidan qoch'madi, ilhom siyohiga cho'milib, varaqda chiroyli husnixat paydo qildi.

Qodiriy bobo, birinchi marta uy-muzeyingizga borganim menda ilk va iliq xotiralar qoldirgan. Bobojon, adabiyot muallimimiz Sizing ijodingiz bo'yicha ilmiy ish qilgani uchunmi, bizga nimanidir tushuntirmoqchi bo'lsa, albatta, hayotingizdan yo asarlaringizdan misol keltirishni yaxshi ko'radi. Sinfxonamiz ham portretlaringiz, hikmatli so'zlaringiz bilan bezatilgan.

Tanlovga tayyorgarlik jarayonida asarlaringizni, ular haqidagi maqolalarni mutolaa qilar ekanman, olmosning qiroli kattaligiga

qarab narxi ko'tarilganday, Siz haqingizdagi tasavvurim sayqallana bordi. O'z navbatida, bu o'ylovim va so'ylovimga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. "O'tkan kunlar"ni 6 yil oldin sinfirmiz bilan o'qiganmiz (ustozimiz majburlagan). Keyin bilsam, bu asarni 5-sinflar o'qib tugatishi maktabimiz an'anasi ekan.

Shularni yozar ekanman, xayollarim Kumushga ko'chdi... Goh tuhmatga qolgan Otabekni qutqarishga o'tlanaman, goh O'zbekoyimga dakki bermoqchi bo'laman. Ba'zan Zaynabga, ba'zan Yodgorga achinaman. Sotti Husayn haqida o'qiganimda "Mehrobdan chayon"dagi "dumi gajaklar": Shahodat muftiy, Kalonshoh, Abdurahmon domlalar ko'z o'ngimda paydo bo'ldi. Axir, "Yig'indi gaplar" uchun qancha quz'g'unlar ko'zingizni cho'qishga urindi?! "Uloqda" ham "bo'lganman", so'ng xayolan Turg'un bilan o'rtoq tutinaman, Esonboyga jannatlardan joy so'rayman. Aytganday, "Jinlar bazmi"da "maza qilganman", hayrat dengiziga g'arq bo'lganman.


Abdulla bobo, Sizga bir sir aytaymi, men ham ijod qilaman. U kuni yozganlarimni ustozimga iymonibgina berdim. "Ahvolimiz" she'ringizga javob misralarimni o'qigan muallima yig'lamsirab: "Qodiriy bobo ruhi qo'llasin!" deb

peshonamdan o'pib qo'ydi. Keyingi maktubimda she'rlarimni ham qo'shib jo'nataman. Oldinlari "Abdulla Qodiriy romanchilik maktabi" jumlasini qulog'imga chalinsa, qayerda joylashgan ekan-a, o'sha maskan, deb o'ylab qolardim. Yozishga ishtiyoqim bo'lganidan men ham o'sha yerda o'qishni orzu qilardim. Bu iboraning ma'nosini, mana, hozir tushunyapman. Aytganday, S.Ahmad, A.Muxtor, P.Qodirov, O'.Hoshimovlar maktabingizning a'lochi o'quvchilari bo'lishgan.

Bobojonim, bir paytlar: "Uxlaganlarni agar Qodir esak uyg'otamiz", deb umidlangan edingiz. Ha, Siz g'afat uyquysidagi millatni bir siltab uyg'otishga qodir ekanligingizni isbotladingiz.

To'rtinchi oktyabr tongi... Har yili shu kun tunday qaro, zilday og'ir kechadi men uchun. Sizni oramizdan olib ketgan o'sha kunni yomon ko'raman. Abdulla bobo! Bilasizmi, ukamning ismi – Otabek, amakimning u bilan tengdosh qizi bor Kumush. Bobojonim, odobi olamga ulgi bo'la oladigan qahramonlaringiz bilan oramizda ikkinchi umringizni yashayapsiz. Asarlaringizni qalbiga jo qilgan har bir o'zbek bolasi bugungi kun Qodiriysi, Uchinchi Renessans bunyodkori bo'lishiga umid bog'layman.

Gulhayo NARZULLAYEVA, Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi o'quvchisi



...Yusuf savdosida beqaror Zulayho ismidan, Majnun ishqida yig'lagan Layli o'tidan – Sizga boshimdagi sochlarimning tuklaricha behad salomlar bo'lsin, Qodiriy bobom.

Bu satrlarni yozmoqqa chog'lanar ekanman, yuragimda g'alati bir hayjон bordur. Har nechuk Siz bilan yuzma-yuz suhbat qurgan emasman, ammo asarlaringizni o'qiganimda o'zingiz qarshimda o'tirgandek, so'zlaringiz qulog'imda jaranglagandek bo'lur. Sizing har bir satringiz, har bir jumlangiz minglab yuraklarni uyg'otganini bilaman. Sizing zamoningiz qor bulutlar ostida bo'lgan paytda, ma'rifat shamchirog'ini yoqib, millatni zulmatdan nurga eltmoq uchun sarflagan umringiz bugun biz uchun ibratdir.

"O'tkan kunlar" kitobini varaqlab, har bir qahramoningiz, nafaqat bir obraz, balki millatning qalbidagi armon ekanligini tushunib yetdim. Jumladan, millat sha'nini himoya qilgan mard o'g'lon timsolida Otabekni, sadoqat va muhabbatni yuksak timsolida Kumushni; zamonamizning ojizlik va ilmsizlik balosini, jamiyatdagi jirkanch

illatlarni Zaynab va Homid siymosida ko'rdim. Siz bu manzaralarni shunday ajib bir kuch bilan tasvirlagansizki, o'qib yuragim ezildi. Erkin so'z uchun, millat uyg'onishi uchun, qalamning, erkning haqqi uchun qanday mashaqqatlar chekkaningizni o'ylasam, yuragim qiyma-qiyma bo'lur.

Endi zamon o'zgardi. O'zbekistonimiz mustaqil bo'ldi. Bayrog'imiz barlari osmonlarni hilpiratmoqda. Ammo, bobojonim, Siz orzu qilgan to'la ma'rifat, qalblardagi uyg'onish sari yo'li hali ham tugamadi. Nodonlik soyasi ba'zi qalblarda hali-hanuz kezib yuribdi.

Bugun biz "O'zbekiston – 2030" degan ulug' bir o'yaga yuz tutganmiz. Maktablarimizda bolalar zamonaviy fanlardan saboq olishmoqda, tariximizni o'rganishmoqda. Men ham shu yo'lda intilmoqdaman. Sizing izingizdan borib, yurtimga foyda keltiruvchi, millatimni yuksaltiruvchi farzand bo'lishni niyat qilganman.

Bobojon, bilasizmi, men Sizni tasavvur ham qilib ko'rganman. Oq to'garak yuzli, mard va jiddiy, ammo yuragi nihoyatda nozik, qat'iyatli, mehribon, qo'lda qalam, qalbid esa millat muhabbati bo'lgan ajib bir inson. Sizing tarix sahifalariga bitilgan oydin nomingiz minglab, yo'q-yo'q, millionlab qalblarda mangu yashaydi.

Bobojon, bu maktubim Sizga yetib borishiga ishonaman, umidim borki, duolarim ruhingizni shod etur. Bobojonim, yana gaplarim bir-biriga ulanmagan, buni yaxshi bilaman. Biroq Sizdan bir asr narida yashayotgan kichik nabirangiz qalbidagi sado va iztiroblarini bir maktub qilib sizga yozdi. "Mendan haddu hisobsiz gunoh, sizdan kechirish".

TILBILIM



NAQSH NIMA? PESHRAV-CHI?

"Musiqada ham yaxshi ohanglar yaratgan. Yaxshi naqshlari, peshravlari bor..."

Bobur Mirzoning hazrat Navoiy ta'rifida aytgan ushbu gaplarini "umuman, tushungandek" o'qib ketaverardim. Ya'ni, tushunishim bo'yicha, Navoiy bobo musiqani ham yaxshi bilgan, hatto kuylar ham bastalagan.

Xo'sh, mazkur jumladagi "naqsh" va "peshrav" so'zlari asli qanday ma'noni anglatadi? Bu savolga Abdurauf Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" risolasidan javob topish mumkin.

Unda izohlanishicha, naqsh bilan peshrav har biri alohida musiqiy asarlardir. Ya'ni, o'sha zamon istilohiga ko'ra, ashulali kuylar – **naqsh**, ashulasiz ohanglar esa peshrav deb atalgan.

Elmurod NISHONOV

JAHON AYYONIDA

ORTIQCHA PUL CHETGA CHIQARILMAYDI



Rossiyadagi mehnat migrantlarining oylik maoshidan ortiq miqdordagi pulni davlatga o'tkazishni taqiqlovchi qonun loyihasi Davlat dumasiga ko'rib chiqish uchun kiritildi. Bu haqda "TASS" xabar berdi.

Tashabbus mualliflari "Yangi odamlar" fraksiyasi deputatlari. Hujjatning tushuntirish xatida aytilishicha, amaldagi me'yoriy hujjatlarda pul o'tkazmalari miqdori migrantlarning rasman tasdiqlangan daromadlariga mos kelishini nazorat qilishning samarali mexanizmlari nazarda tutilmagan.

KOSMODROM TURIZM MARKAZIGA AYLANTIRILADI



Qozog'iston dunyodagi ilk kosmodrom – Boyqo'ng'irni turizm uchun zamonaviy maskanga aylantirishni boshladi. Bu haqda "Euronews" xabar berdi.

Tashabbusdan maqsad – 2029-yilgacha bu yerga yiliga 50 mingga yaqin sayyohni jalb qilish. Loyiha doirasida mehmonxonalar, glamping (lager, chodir) zonalarini hamda bolalar lagari tashkil etilishi rejalashtirilmoqda. Sayyohlar tarixiy joylarni ko'rish bilan birga, kosmik sayohatning sirli va sehrli olamiga sayr qilish imkoniga ega bo'ladi.

QATARGA TAHIDID



Isroil bosh vaziri Benyamin Netanyahu Qatarga yangi hujum uyushtirish bilan tahdid qildi.

U Doha rasmiylaridan XAMAS vakillarini quvib chiqarishni talab qilmoqda. Bu haqda "Al Jazeera" xabar berdi.

Qatar Tashqi ishlar vazirligi ushbu bayonotni keskin tanqid qilgan va uni davlat suverenitetini buzishga urinish sifatida baholagan.

JALOLOBOD NOMI O'ZGARTIRILADI

Qirg'iziston parlamenti – Jo'g'org'u Kenesh Jalolobod shahrini Manas deb qayta nomlash to'g'risidagi qonun

loyihasini qabul qildi. Bu haqda 24.KG xabar berdi.



Shahar aholisi tomonidan ilgari surilgan tashabbus milliy g'oyani mustahkamlash va xalq qahramoni Manas nomini abadiylashtirish maqsadida ilgari surilmoqda.

AFRIKADAGI ENG YIRIK GIDROELEKTR TO'G'ONI

Efiopiya Afrikadagi eng yirik gidroelektr to'g'onini ishga tushirdi. Bu haqda "The Guardian" xabar berdi.

Bu loyiha mamlakatning energetika sohasini tubdan o'zgartirishi mumkin, biroq qo'shni Misr bilan munosabatlarni yanada keskinlashtirishi ehtimoli bor.



Ko'k Nil ustida qurilgan, balandligi 170 metr va uzunligi deyarli 2 kilometr bo'lgan to'g'on 74 milliard kub metr suvni to'plash va 5,150 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan. Bu mamlakatning hozirgi elektr quvvatidan ikki barobar ko'p.

Jadid

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI



"SHAHIDLILAR XOTIRASI" JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:

Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:

Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:

Akmal Jumamurodov

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov

Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19 083

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 434

Lotin yozuvida – 11 649

Media kuzatuvchilar – 81 422

Buyurtma: G – 940.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 00:30

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz